

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Fizika-matematika fakulteti

«Mehnat ta'limi» kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

**Mavzu: 8-9 sinf o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirishda zamonaviy
bilimlarning ahamiyati**

Bajargan:

R. Ibodullaeva

Rahbar:

J.Baltabaev

Kafedra mudiri:

B.Ibragimov

Nukus-2016

**Mavzu: 8-9 sinf o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirishda zamonaviy
bilimlarning ahamiyati**

REJA:

KIRISH

**I-BOB. KASBLAR TASNIFINI, KASBLARDA MEHNAT TURLARINING
TA'RIFI**

1.1. Kasblar tasnifini

1.2. Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi

1.3. Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar

II-BOB. O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH TIZIMI

2.1. Ta'lim tizimi va turlari

2.2. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xususiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshiralayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir[1].

Mehnat ta'limi o'qituvchisi oliy ta'lim muassasasida pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tadbiq etishda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning metodlari, dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, o'quvchilarda kasblarga oid bilim berish ko'nikish, moslashish, tanlash, kasbni shakllantirish yoki boshqa kasbni tanlash, tashkiliy shakllari hamda vositalari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish ishlarini olib borishi lozim.

Shuningdek, pedagogik-psixologik bilimlarni o'quvchilarda umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida tadbiq etishi; pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etishi; maktablarda Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash hamda kasb tanlashga yo'llash darslarini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirishdan iborat [2].

O'quvchilarni mehnat fanida kasb tanlashga yo'llash jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'ladilar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash tarkibida kasbga yo'naltirish ularning zamonaviy va milliy kasb-hunarlarni o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Kasb tanlashga yo'llash va kasbga yo'naltirish ishlarini xalq xo'jaligi tarmoqlari istiqbolini hamda kasb-hunar kollejlari sohashtirilganligini hisobga olgan holda bajarishiga xizmat qiladi [3].

I. KASBLAR TASNIFINI, KASBLARDA MEHNAT TURLARINING TA'RIFI

1.Kasblar tasnifini

Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rangbarang kasblar olamida qanday qilib mo`ljall olish kerak? Hayot yo`lini mehnat faoliyatini to`g`ri boshlash uchun qaysi kasbni tanlagan ma`qul. Bu ishda kasblar klassifikatsiyasi sizga yaxshi yordam berishi mumkin, Ko`pgina predmetlarni o`rganish chog`ida siz har xil oddiy va murakkab ob'ektlar, faktlar, voqea-hodisalar va boshqa shunga o`xshash narsalar qanday tizimlashtirilishini bilib olgansiz. Masalan, o`simlik va hayvon organizmlari tiplarga, turkumlarga, turlarga. oilalarga, otryadlarga birlashtiriladi.

Kasblar klassifikatsiyasi uchun har xil belgilarni asos qilib olish mumkin. Masalan, ularning nomlari boshlanadigan birinchi harflar bo`yicha bo`lib chiqish mumkin. Bu xuddi lug`atlarning tuzilishiga o`xshagan bo`ladi.

To`g`ri, bunday klassifikatsiyadan kasb tanlash uchun foydalanish unchalik qulay bo`lmaydi, chunki kasb tanlash uchun eng avvalo o`sha kasbning nomini bilish kerak. Hamma gap shundaki, ko`p hollarda kasbning nomi, uning qanday atalishi kasb tanlayotgan kishiga ma`lum bo`lmaydi. Masalan, aytaylik, siz yaxshi rasm chizasiz, bu mashg`ulot sizga juda yoqadi va siz bundan keyin ham o`zingizdagi mana shu rasm chizish qobiliyati kerak bo`ladigan joyda ishlashni xohlaysiz. Xo`sh, aytingchi, siz gazmol ishlab chiqarishda rasmlardan nusxa ko`chiruvchi degan kasb borligini, poligrafiyada - dizayner, kolorist, retushyor kasbi, badiiy-zargarlik buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalarda inkrustator kasbi borligini bilasizmi? Bu ro`yxatni yana davom ettirish mumkin.

Kasblarni yana ular bozor iqtisodiyotining qaysi sohasiga taalluqli ekanligiga qarab ham joylashtirib chiqish mumkin. Bunday klassifikatsiya korxonalar va o`kuv yurtlarining rahbarlari uchun qulay bo`lsa ham, lekin kasb tanlayotgan kishiga unchalik qo`l kelmaydi. Chindan ham, masalan, birgina tikuvchilik sanoatining o`zida modeler-konstruktorlar, texnologik jihozlarni sozlovchilar, chilangarlar, gazmolni saralaydigan xisobchi-tanlovchilar,

qirquvchilar, tikuvchi-motoristlar, hisobchilar, iqtisodchilar, singari juda ko'p kasblar mavjud. Lekin kishining shaxsiy fazilatlari (qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, hosil qilgan tajribasi) bilan sanoatning bir tarmog'idagi kasblarni butunlay qamrab olish mumkinmi?


Albatta, yo'k. Shuning uchun ham tarmoq belgilari bo'yicha tuzilgan klassifikatsiyadan emas, balki odamning o'zidan, ya'ni mehnatda bevosita ishtirok etadigan kishining o'zidan kelib chiqadigan belgilarga qarab tuzib chiqilgan klassifikatsiyadan foydalanish kasb tanlayotgan kishi uchun qulay bo'ladi.

Chindan ham, odam ishlayotgan vaqtda uning diqqat-e'tibori sohaga emas (bu soha qanchalik yaxshi, obro'-e'tiborli va boshqa ko'pgina afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay), balki mehnat predmeti (ob'ekti)ga qaratilgan bo'ladi.

Mana shu predmetni ishlatib, nimadir qilish kerak (bu endi mehnatning maqsadi bo'ladi). Har qanday mehnatda qurollar, vositalar mavjuddir. Nihoyat, odam uchun uning qanday sharoitda ishlashi muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlashni o'ylayotgan kishi uchun qulay bo'lgan kasblar klassifikatsiyasi mana shu to'rtta belgiga qarab tuziladi.

Sxematik tarzda olganda, bunday klassifikatsiyani to'rt qavatdan iborat piramida shaklida tasavvur qilish mumkin. Uning qavatlari: kasblarning tiplari; kasblarning turkumlari; kasblarning bo'limlari; kasblarning gruppalaridan iborat bo'ladi (1 -rasm). Eng yuqorida bo'sh qoldirilgan to'g'ri burchak sizning bo'lajak kasbingizga mo'ljallangan.

Ushbu sxemani siz o'zingizning kelajakdagi mehnat yo'lingizni tanlayotganingizda o'ylab olishingizga imkon beradigan, asta-sekin pastdan yuqoriga qarab chiqib borishingiz mumkin bo'lgan (kasb tipini aniqlashdan boshlab uning turkumini muhokama qilishga o'tish va hokazo) bir «pillapoya» sifatida qarash mumkin.



1- rasm. Kasblar klassifikatsiyasini ko`rsatuvchi sxema

Kasblarning turkumlari

Mehnatning maqsadi odam faoliyati mazmunining muhim xarakteristikasi hisoblanadi. Mehnatning maqsadlari xilma-xil bo`lishiga qaramasdan, ularni uchta katta gruppaga: bilish, o`zgartirish, o`ylab topish gruppalariga bo`lish mumkin. Mehnatning maksadiga qarab kasblarni uch turkumga ajratib ko`rsatish mumkin.

1. Gnostik kasblar (G). Bu kasblarning nomi lotincha «gnosis»-bilim, bilish degan ma'noni anglatuvchi so`zdan olingan. Agar siz aqliy mehnat (ya'ni bilib olish, gnostik mehnat) bilan faqat ish stolida, xonada shug`ullanish mumkin deb o`zingizga odat bo`lib qolgan tarzda o`ylaydigan bo`lsangiz, u holda bunday fikrdan voz kechishga to`g`ri keladi. Bilish, o`rganish mehnati bilan bog`liq bo`lgan ko`pgina kasblar mavjud bo`lib, ular bilan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayonida shug`ullanishga to`g`ri keladi. Masalan, nazoratchilar, sortga ajratuvchilar, pirometristlar ana shunday kasbdagi kishilardir.

Bu turkumdagi kasbga oid mehnatning maqsadi turlicha: mahsulotni navlarga ajratish, oldindan ma'lum bo'lgan belgilarga qarab tekshirish, baho berishdan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan, korxonadagi texnika nazorati bo'limining nazoratchisi tayyorlangan mahsulotni UzRST talablari, mahsulot namunalari bilan solishtirib, taqqoslab tekshiradi. U mahsulotni qanday navga kiritish kerakligi to'g'risida mas'uliyatli qaror chiqaradi, brak mahsulotni aniqlaydi. Nazoratchi o'z mehnatida xilma-xil o'lchov asboblari va jihozlardan foydalanadi.

Gnostik kasblarni ilgari qarab chiqilgan beshta tipdagi kasblarning har biri orasida topish mumkin. Mana, bunga bir nechta misol keltiramiz.

Tab. tipdagi kasb tuxumlarni sortlarga ajratuvchi, ximik-biologik analiz laboranti;

T tipdagi kasb radioapparatlar nazoratchisi, vagonlarni qarab yuruvchi;

O tipdagi kasb - transportdagi normirovshik, sanitariya vrachi;

B.t. - tipdagi kasb - korrektor, normirovshik;

B.o. tipdagi kasb - musiqa asboblari nazoratchisi, adabiy tanqidchi.

Mazkur turkumdagi kasblar xodim oldiga muayyan talablar qo'yadi. Unda yaqqol namoyon bo'lib turgan bilish faolligi, kuzatuvchanlik, yuksak darajadagi ishchanlik hamda diqqat, xotira va tafakkurning barqaror bo'lishi nihoyatda muhimdir. Mahsulot sifati ustidan o'rnatiladigan nazorat, ob'ektlarga, shart-sharoitlarga u yoki bu xilda baho berish ko'pincha boshqa kishilarning manfaatlariga ham taalluqli bo'lishi tufayli bu ishda pozitsiyaning qat'iy bo'lishi, xulosalar chiqarishda printsiptiallik kursatish g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Quyida gnostik kasb vakillarining mehnati mazmuniga juda qisqa tarzda berilgan uchta izoh keltiriladi. Siz ularda:

a) klassifikatsiya, b) baho berish, v) tadqiqot maqsadlaridan qaysi biri ustun turganligini aniqlashga harakat qiling. Tovarshunos (tayyor kiyimlar va gazmollar do'konida) olingan gazlamalarda uzunasiga bosilgan gulning bir tekis chiqqanligini, ularda ishlab chiqarish nuqsoni yoki dog'lar ehtiyotsizlik bilan ortib-

tushirish vaqtida kir-chir bo`lgan-bo`lmaganligini, omborlarda noto`g`ri saqlash, noto`g`ri tashish natijasida hosil bo`lgan dog`larning bor-yo`qligini tekshiradi, tayyor kiyimlarning sifatli tikilishiga e'tiborni qaratadi. Radiodetallarning elektr parametrlarini o`lchovchi (ishlab chikarish korxonasida) o`z ish joyida elektr o`lchov asbobiga (yoki asboblarni kompleksiga), tekshiriladigan va tekshirib bo`lingan (brak qilingan yoki yaroqli) mahsulotni solish uchun taraga, radiodetallarning parametrlarida yo`l qo`yish mumkin bo`lgan chetga chiqishlar to`g`risida ma'lumot beruvchi, havo muhitidagi haroratga qarab tuzatish kiritish to`g`risida, priborlardagi xatoliklar to`g`risida ma'lumotlar yozilgan jadvallarga ega bo`ladi.

O`lchovchi kishi detalni qo`liga olib, uni o`lchov asbobining kontaktiga ulaydi, shkalaga qarab, u yoki bu qarorga kelganidan keyin, detalni tegishli idish (tara) ga soladi.

Vagonlarni qarab yuruvchi (temir yo`lda) qo`li bilan bukslar (sirpanish podshipnigiga ega bo`lgan qurilma)ni ushlab ko`rish yo`li bilan uning haroratini belgilaydi, bukslarda metall changlarning izi bor-yo`qligini qarab tekshiradi va boshqa shunga o`xshash ishlarni bajaradi. Ta'mirlash operatsiyalari o`tkazish zarurligi to`g`risida bir qarorga keladi.

2. O`zgartiruvchi kasblar (P). Juda ko`p kasblar mehnat predmetlarini o`zgartirish bilan bog`liq bo`ladi. Odamning o`zgartiruvchi faoliyati faqat buyumlargagina qaratilib qolmay, shu bilan birga energiya turlariga, axborotlarga, jarayonlarga, ijtimoiy hayotning tuzilishiga qaratilgan bo`lishi ham mumkin. Mana, bunga faqat birgina misol keltiramiz. Etakchi o`quvchilarni uyushtirdi va ular ko`chat o`tqazishda faol ishtirok etdilar. Mana shu misolda faqat tabiatning o`zgarganligi to`g`risida gapirish kifoya qilmaydi. Bu erda eng muhimi bolalarning mehnatga, bir-birlariga bo`lgan munosabatlari o`zgaradi va hokazo.

Goho o`zgarish mehnat predmetiga bevosita ta'sir ko`rsatish jarayonida, aytaylik, chilangarning ishida, chizmachilarning, kartograf yoki toshga o`yib go`l soluvchi ustaning ishida sodir bo`lishi mumkin.

O'zgartiruvchi kasblar turkumiga oid misollarni ilgari ko'rib chiqilgan kasblarning besh tipidan istagan bittasida ko'plab topish mumkin.

O'zgartiruvchi kasblar xodimdan muayyan fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunchaki talab qilibgina qolmay, shu bilan birga o'sha fazilatlarni faol ravishda rivojlantiradi ham.

Mazkur turkumga oid kasblarning yana bir o'ziga xos xususiyatini ta'kidlab o'tish kerak. Mehnat predmetini amaliy ravishda o'zgartirish xodimdan aqliy faoliyat ko'rsatishni talab qiladi. Mehnatning aqliy (intellektual) tomoni ko'pincha tashqaridan kuzatganda ko'zga ko'rinmaydi.

Shuning uchun ham ba'zi bir ishlarning (ularni yuzaki kuzatganda) intellektual yuki yo'qday bo'lib tuyuladi. Kasb tanlayotgan vaqtda va keyinchalik o'sha kasbni puxta egallab olinayotgan vaqtda mehnatning ana shu ko'zga ko'rinmaydigan, yashirin tomonini ko'ra bilishni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Masalan, shunday bir amaliy vaziyatni ko'zdan kechirib chiqaylik.

Tokar kesish asbobini tanlayapti, deylik. Tashqaridan qaraganda, bu bir daqiqalik ish: bunday qaradi-yu, darhol baholab o'ziga keraklisini tanlab oldi. Xo'sh, aslidachi? Aslini olganda, bu erda nimalar sodir bo'ldi? U hayolan ko'z oldida turgan barcha kesish asboblarining qirralarini, uchlarini, burchaklarini alohida-alohida tekshirib chiqadi. So'ngra, yana hayolan u yoki bu keskichni tanlab o'ziga kerak bo'lgan ma'lum guruxga (masalan, rezba ochadigan yoki qirqadigan yohud boshqa bir turdagi kesish asboblari guruxiga) kiritadi.

Shundan keyin u yana o'z diqqat-e'tiborini qirqilayotgan predmetga yaqinlashtirilgan muayyan kesish asbobiga (uning joylashtirilishiga, kesiladigan burchaklarga) jalb qiladi, ushbu asbobni hayolan boshqa shunga o'xshagan tipdagi asboblari guruxiga kiritadi.

Yuqorida keltirilgan misollarning qaysi birida xodimlarning o'zgartiruvchi faoliyati yorqinroq namoyon bo'lganligini aniqlang. Oziq-ovqat mahsulotlari sotuvchisi. Ish kuni mobaynida sotuvchi bo'limdagi mollarni tekshirib turadi, ularni sotuvchilar uchun qulay bo'lgan joylarga olib qo'yadi, xarid qilingan

mollarga to'g'ri haq to'lanayotganini tekshiradi va boshqa shu singari ishlarni bajaradi.

Bolalar bog'chasining tarbiyachisi. Bolalarning o'yinlariga, mehnatiga, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga rahbarlik qiladi, bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutq o'stirish, rasm chizish, haykalchalar yasash, musiqa bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazadi; odamlar jamiyatda o'zlarini qanday tutishlari to'g'risidagi qoidalar, axloq-odob normalari bilan bolalarni tanishtiradi, oilada bola tarbiyasi masalalari bo'yicha ota-onalar huzurida nutk so'zlaydi.

3. Tadqiqotchilik kasblari (I). Mazkur turkumning nomi izoh berishni talab qiladi. Bu nomga qarab, mazkur kasb qidiruv ishlari bilan (masalan, geologik qidiruv ishlari bilan) yoki ilmiy tadqiqotlar bilan, albatta, bog'liq kasb bo'lsa kerak, deb o'ylamaslik kerak. Bu erda o'zgartiruvchi turkumga yaqin bo'lgan kasblar to'g'risida gap boradi.

Mazkur turkumdagi kasbda qilinadigan mehnatning maqsadi - qandaydir bir noma'lum narsani, buning ustiga ko'pincha cheklangan bir vaqt sharoitida qidirishdan iborat bo'ladi. Buni biz poyabzal sirtini tayyorlaydigan bichiqchi ustaning ishi misolida tasvirlab berishga harakat qilamiz. U bir parcha charmni qo'lga olib, uni pressning plitasi ustiga qo'yadi, material ustiga qirqish asbobi - keskichni joylashtiradi, udarnikni ish ustiga shunday yaqinlashtiradiki, u shundaygina keskich ustiga kelib qoladi va shundan keyingina stanokni yurgizadi. Sirtidan qaraganda, hammasi oddiy ishga o'xshab tuyuladi. Lekin har bir charm parchasi o'zining shakli, o'lchovi, yaqqol ko'zga ko'rinib turgan va ko'rinmay turgan sifatlari bo'yicha boshqa hech bir shunday charm parchasiga o'xshamaydigan darajada betakrordir (charmning turli joylari qalinligi bilan bir-biridan farq qiladi, turlicha deformatsiyalanadi, unda yorilgan, kesilgan joylar va boshqa shunga o'xshash nuqsonlar mavjud bo'ladi, materialning turli qismlari poyabzalning muayyan detallarini tayyorlash uchun yaroqli bo'ladi). Charm - qimmatbaho material, shuning uchun undan juda oz darajada chiqindi chiqadigan qilib bichish ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Har bir material parchasi qo'lga

olinganida bu haqda uzoq o`ylab o`tirish uchun vaqt yo`q. Shunday bo`lgach, har safar ayni mana shu charm parchasi bichig`ining qanday kilib eng yaxshi variantini topish mumkin, qanday qilinganda eng tejamli va eng sifatli variant bo`ladi, degan murakkab vazifa ko`ndalang bo`lib turadi.

O`zgartiruvchi turkumdagi kasblarga razmetkachilik (kemasozlik sohasida, metallga ishlov berish sanoatida), yakka tartibda kiyim tikish atelesining bichikchilik kasbini va boshqa shunga o`xshash kasblarni kiritish mumkin.

Quyida keltirilgan ikki xil kasb ishchilari mehnatini bir-biriga taqqoslang. Ulardan qaysi biri ko`proq murakkab amaliy vazifalarni hal etadi?

Ko`chma beton qorish mashinasining motoristi. Belgilangan re-tseptlarga muvofiq u yuk tashish qurilmalarining yordamida sement, qum va boshqa zarur komponentlarni aralashtirish agregatlariga to`kadi. Mana shu agregatlarni tokka ulab yurgizadi, o`chiradi va shu yo`l bilan beton, qorishma hamda boshqa shunga o`xshash narsalar ishlab chiqarish bo`yicha berilgan rejimni bajaradi.


Skreper mashinisti (er qazish-transport mashinasi mashinisti).

Kurilishda skreper mashinistlari qurilishga birinchi bo`lib qadam qo`yadigan kishilardir. Ular hali yo`l qurilmagan sayhonlikda birinchi bo`lib ish boshlaydilar; ba'zan juda chuqur joylardan, masalan, kotlovanlardan yurib o`tishga to`g`ri keladi. Mashinist kovshning holatini kuzatib boradi, kovsh tuproqqa qanday to`lib borayotganligini tekshirib turadi. Tuproqning xususiyatiga qarab (u yaxlagan bo`lishi, sochma bo`lishi, loy aralashgan toshloq bo`lishi mumkin va hokazo) uni surish rejimini muvofiqlashtirib turadi, ya'ni surib tekislanadigan tuproq qatlamining qalinligini o`zgartiradi.

Mashinist o`z ishida texnika hujjatlariga (texnologiya kartasiga, barpo etilayotgan inshoot sxemasiga) amal qiladi.

Yuqorida keltirib o`tilgan kasblarning uch turkumga bo`linganligi - shartli bo`linishdir. Shunday kasblar ham borki, ular ikki yoki hatto mana shu uchala turkumdagi kasblarning hammasiga xos bo`lgan belgilarni turli darajada o`zida mujassamlashtirgan bo`ladi. Chunonchi, o`qituvchilik kasbi o`zgartiruvchi kasblar

sinfiga mansubdir, biroq imtihonlar davriga kelib, o`qituvchi o`quvchilarning bilimini tekshirayotgan, baholayotgan vaqtda mehnatning maqsadi ko`proq gnostik kasblarga xos bo`lib qoladi. Sozlovchi chilngar dastlab mexanizmning buzilgan joyini topadi, keyin uni tuzatadi, bunday buzilish boshqa takrorlanmasligi uchun nimalar qilish kerakligi to`g`risida o`ylaydi. Bu erda mehnat maqsadining har uchala turi bilish, o`zgartirish va tadqiq etish turlari mavjud. Lekin har qanday kasbda ham mehnatning asosiy maqsadi nimadan iborat ekanligini belgilab olish mumkin va u mana shu maksadga qarab muayyan bir turkumga kiritiladi.



1. Mehnatning maqsadiga qarab kasblar qanday klassifikatsiya qilinadi?
2. Har bir turkumdagi kasb uchun xos bo`lgan mehnatning asosiy maqsadlarini aytib bering?
3. Nima uchun kasblarning turkumlarga bo`linishi shartli bo`linish bo`ladi? O`z javobingizni berishga harakat qiling.

Maktab yonida joylashgan korxonadagi kasblardan misollar keltiring. Bu misollarda korxonadagi mehnatning mazmuni murakkab amaliy vazifalarni hal qilish zaruriyatini nazarda tutadigan bo`lsin.

Kasblarning bo`limlari va gruppalari

Kasblarning bo`limlari. Mehnat vositalariga qarab kasblar bo`limlarga bo`linadi.

1. Qo`l mehnatidan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan kasblar (R).

Mazkur kasbda ishlovchi kishilar qo`l mehnatidan va mexanizatsiyalashtirilgan mehnat qurollaridan foydalanadilar. Masalan, otvyorka, skalpel (jarrohlik pichog`i), shtixel (yog`ochga yoki metallga o`yib gul solish asbobi), reysfeder, tortsovka (bo`yoqchilar cho`tkasining bir xili), elektr drel, buyoq purkagich, pnevmatik otboyka bolg`asi va hokazolar ana shunday ish quroli hisoblanadi.

Qo`l mehnatida ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan asboblari, hunarmandchilikning o`zi singari, takomillashib bormoqda. Bunday asboblarni ishlatish vaqtida kishidan yuksak darajada mehnat madaniyati, chidamlilik, faqat ishning natijalarigagina emas, shu bilan birga o`sha ish jarayonining o`ziga ham alohida qiziqish bilan qarash talab qilinadi.

2. Qo`lda boshqariladigan mashinalardan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan kasblar (M). Boshqacha qilib aytganda, ularni ham mashinada, ham qo`lda ish bajariladigan kasblar deyish mumkin - tokar, frezerchi, kran mashinisti, keng profildagi traktorchi-mashinist, elektrovoz mashinisti va boshqalar ana shunday ham qo`l mehnati, ham mashinadan foydalaniladigan kasblar qatoriga kiradi. Bunday kasblarda ishlaydigan kishilardan faqat texnologik bilimlarga ega bo`lish talab qilinmasdan, shu bilan birga ulardan qo`l mehnati malakasiga ega bo`lish ham talab qilinadi. Ular kutilmagan signallarga va to`satdan bo`ladigan voqea-hodisalarga tayyor bo`lib turishlari kerak. Bunday vaqtlarda ulardan nihoyatda tez bir qarorga kelish va sodir bo`layotgan ishlarning oqibatini oldindan ko`ra olish va shoshilinch choralar tarzida bajariladigan harakatlarga tayyor bo`lib turish talab qilinadi.

3. Avtomatlashtirilgan va avtomatik sistemalardan, apparatlardan foydalanish bilan borliq bo`lgan kasblar (A). Avtomatlashtirish darajasiga qarab

ishlayotgan kishining zimmasiga har xil vazifa tushishi mumkin. Bu vazifa umuman agregatni va uning ta'miri bilan bog'lik bo'lgan ishlarni boshqarishdan tortib o'sha agregat ishini kuzatib turish va agar zarurat tug'lsa, kerakli mutaxassisni chaqirishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur kasb bo'limining vakillari prokat stanining operatori, energosistema dispetcheri, ximiya ishlab chiqarishi apparatchisi, avtomatik liniyalar operatori, po'lat quyuvchi va boshqalardir.

4. Funktsional vositalar, mehnat qurollari ko'proq talab qilinadigan kasblar (F). Bu erda odam xulq-atvoridagi funktsional vositalar va uning nutqidagi ana shunday vositalar, ya'ni imo-ishoralar, tovushlar, so'zlar, jummalarning talaffuz qilinishi, ma'no tashuvchi va emotsional intonatsiyalar, pauzalar, yuz mimikasi mehnat quroli rolini bajaradi. Bu bo'limga:

o'qituvchi, tarbiyachi, san'atkor, aktyor, xor yoki orkestr dirijyori singari kasblar kiradi.

Odam organizmi ham funktsional vosita rolini bajarishi mumkin (balet artisti; sport pedagog-murabbiyi, ashulachi, sirk akrobati).

Mana shu kasblarni egallagan kishilar uchun o'z xotirasida juda ko'p qoidalarni, ma'lumotlarni saqlab qolish qobiliyati, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarish qobiliyati xarakterli bo'ladi.

Kasb guruhlari. Nihoyat, piramidaning oxiridan oldingi qavati (1-rasmga qarang)-mehnat sharoitlari bo'yicha kasblar klassifikatsiyasiga to'xtalib o'tamiz. Kasblar to'rtta guruxga bo'linadi:

1. Odatdagi («maishiy») mikroiklim sharoitidagi mehnat (B). Hisobchi, iqtisodchi, chizmach, o'qituvchi va boshqalarni mana shu kasb gruppasiga kiritish mumkin.

2. Harorat, namlik keskin o'zgarib turuvchi ochiq havoda ishlash bilan bog'liq bo'lgan mehnat (O). Quyidagi kasblar bunga misol bo'la oladi: quruvchi, o't o'chiruvchi, sug'oruvchi va boshqalar.

3. Odatdan tashqari mehnat: er ostida, suv ostida, balandlikda, havoda, qaynoq sexlarda, sog`liq uchun muqarrar zararli ta'siri bo`lgan sexlarda ishlash (N). Bunday kasbga misollar: uchuvchi, shaxtyor, g`avvos va hokazo.

4. Odamlarning sog`ligi, hayoti uchun, katta-katta jamoat boyliklari, moddiy ne'matlar uchun oshirilgan ma'naviy mas'uliyat bilan bog`liq bo`lgan mehnat (M). O`qituvchi, shifokor, militsiya noziri, texnika xavfsizligi muxandisi va boshqa kasblarni mana shu mehnat guruxiga kiritish mumkin.

Yuqorida keltirib o`tilgan kasblarning mehnat sharoitiga qarab bo`linishi bu, albatta, shartli bo`linishdir. Ko`p hollarda bir xil kasbdagi kishilarning mehnati turlicha sharoitda kechadi. Shuning uchun bunday vaqtlarda o`sha sharoitlarning eng asosiylarini hisobga olishga to`g`ri keladi.

O`zingiz tanlamoqchi bo`lgan kasb qaysi bo`limga taalluqli ekanligini aniqlang va buni asoslab bering.

1. Kasblar mehnat vositalariga qarab qay tariqa bo`linadi? Mehnat sharoitiga qarab-chi?

2. Har bir kasb bo`limiga xarakteristika bering.

3. Har bir kasb guruxini ta'riflab bering.

O`zingiz tanlamoqchi bo`lgan kasb qaysi bo`limga taalluqli ekanligini aniqlang va buni asoslab bering.

Bo`lg`usi kasbingizni qaysi guruxga kiritish mumkinligini aniqlang.

Kasblar sohalari nomlari

- 1) Biologiya;
- 2) Geografiya;
- 3) Geologiya;
- 4) Tibbiyot;
- 5) Yengil va oziq-ovqat sanoati;
- 6) Fizika;
- 7) Kimyo;
- 8) Texnika sohasi;

- 9) Radio va elektronika sohasi;
- 10) Metallarga ishlov berish;
- 11) Yog'ochga ishlov berish va ashyoshunoslik;
- 12) Qurilish sanoati sohasi;
- 13) Transport (avtomobil, havo, daryo, temir yo'l va boshqalar);
- 14) Aviatsiya;
- 15) Harbiylar sohasi;
- 16) Tarixshunoslik;
- 17) Adabiyotshunoslik;
- 18) Jurnalistika;
- 19) Jamoat ishlari (boshqaruv sohasi, tashkilotchilik);
- 20) Pedagogika;
- 21) Huquqshunoslik;
- 22) Xizmat ko'rsatish sohasi;
- 23) Matematika;
- 24) Iqtisodiyot (moliya, buxgalteriya, marketing va boshqalar);
- 25) Xorijiy til;
- 26) Tasviriy san'at;
- 27) Sahna san'ati (teatr, kino);
- 28) Musiqa (yakka xonanda, bastakor, rejissiyor va boshqalar);
- 29) Jismoniy tarbiya va sport va boshqa sohalar.

2. Kasblarda mehnat turlarining ta'rifi

Mehnat predmetiga qarab barcha kasblar beshta tipga bo'linadi.

1. «Odam - tabiat» . Bu erda mehnatning asosiy, etakchi predmeti jonli tabiatdir. Bu tipga, masalan, quyidagi kasblar kiradi: urug'shunos, meva-sabzavotshunos, davlat urug'chilik inspeksiyasining laboranti, chorvador-usta, ximik-bakteriologik analiz laboranti, zootexnik, agronom.

«Odam-tabiat» tipidagi kasblardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

o`simliklar organizmi mehnat predmeti bo`lgan kasblar; hayvonlar organizmi mehnat predmeti bo`lgan kasblar; mikroorganizmlar mehnat predmeti bo`lgan kasblar.

Yuqorida ko`rsatib o`tilgan bo`linish «odam-tabiati» tipidagi kasbga mansub bo`lgan kishilar mehnati faqat eslatib o`tilgan predmetlargagina qaratilgan bo`ladi, degan ma`noni anglatmaydi, albatta. O`simlikshunoslar, masalan, jamoa orasida ishlaydilar, xilma-xil texnikadan foydalanadilar, ularning o`z mehnatlarini hisobga olish, unga iqtisodiy baho berish masalalari bilan ham shug`ullanishlariga to`g`ri keladi, lekin bari bir o`simlikshunoslarning diqqat-e`tiborini jalb etadigan va ular g`amxo`rlik qiladigan asosiy predmet - bu o`simliklar va ular o`sadigan muhit hisoblanadi.

Mazkur tipdagi kasbni tanlash vaqtida siz o`zingiz tabiatga qanday munosabatda bo`lishingiz juda muhim ahamiyatga egadir: siz unga dam oladigan, ko`ngil xushlik qiladigan joy deb qaraysizmi yoki o`zingizni butun kuch-g`ayratingizni biror mahsulot ishlab chiqarishga sarf etishga shaylanayotgan ustaxona deb qaraysizmi? Bu savolga javob berish uchun odam o`zini ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan, jonli tabiatga aloqador ijtimoiy foydali mehnat jarayonida yoki tegishli to`garaklar, qiziqish bo`yicha tuzilgan guruxlarning mashg`ulotlarida qatnashib sinab ko`rishi mumkin.

«Odam-tabiati» tipidagi kasblarni tanlash vaqtida hisobga olish zarur bo`lgan yana bir jihat bor. Mehnatning biologik ob'ektlarining o`ziga xos- xususiyati shundan iboratki, ular (o`z ichki qonuniyatlariga ko`ra) murakkab, o`zgaruvchan va nostandart bo`ladilar. O`simliklar ham, jonivorlar ham, mikroorganizmlar ham dunyoga kelib yashaydilar, o`sadilar, rivojlanadilar.

Shuningdek kasallikka chalinadilar va halok bo`ladilar. Bu sohada ishlaydigan xodim tirik organizmlar to`g`risida juda ko`p narsalarni shunchaki bilibgina qolmay, shu bilan birga ko`pincha muqarrar ravishda sodir bo`ladigan yoki sodir bo`lishi ehtimol tutilgan o`zgarishlarni ham oldindan ko`ra bilishi kerak. Konkret mehnat vazifalarini hal qilish vaqtida odamdan tashabbuskorlik va

mustaqillik talab qilinadi, u tabiatga nisbatan g'amxo'r va uzoqni ko'ra oladigan kishi bo'lishi kerak.

O'z ish daftaringizga quyidagi savollarni yozib oling va ulara javob bering:

Bu ish sizga yoqadimi, quyidagi ishlarni bajarishni xohlarmidingiz?

1. Biologiyadan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajarishni istaysizmi?

2. Maktab o'quv-tajriba uchastkasida, tirik burchakda, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi dalalarida ishlash sizga yoqadimi?

3. O'z tomorqangizda, bog'ingizda, polizingizda ishlashni istaysizmi?

4. Uy hayvonlarini boqishni istaysizmi?

5. Jonli tabiat to'g'risidagi ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotni o'qishni sevasizmi?

Agar mana shu savollarning ko'pchiligiga «ha» deb javob beradigan bo'lsangiz, u holda «odam-tabiat» tipidagi kasblarning sizga to'g'ri kelishi ehtimoldan uzoq emas. Biroq, hozircha bu xulosani hali uzil-kesil xulosa deb hisoblab bo'lmaydi. Keyinchalik siz yana bir qancha omillar yig'indisini bilib olasizki, kasb tanlashda shu omillarni hisobga olmoq zarur.

2. «Odam-texnika» . Bunday kasblar tipida mehnatning asosiy etakchi predmeti texnika ob'ektlari (mashinalar, mexanizmlar va boshqa shunga o'xshashlar), materiallar, energiya turlaridan iborat bo'ladi. Jonsiz tabiat ob'ektlari (Er osti boyliklari, tuproq, suv, o'rmon va qishloq xo'jaligi mahsulotlari) ham ko'p jihatdan shularga o'xshagan bo'ladi.

Bu erda xodimlarning mehnati faqat texnikagagina qaratilib qolmaydi, albatta. Chunonchi, trolleybus haydovchisi ish vaqtida yo'lovchilar bilan muloqotga kirishadi, kran mashinisti (kranchi) qishloq xo'jalik hayvonlari qamalgan qafaschani ortish bilan mashg'ul bo'lishi mumkin va hokazo. Lekin baribir mazkur holatlarda xodimlarning kasbiy diqqat-e'tibori qaratiladigan va ular g'amxo'rlik qiladigan etakchi predmet - texnika ob'ektlari va ularning xususiyatlari bo'lib qolaveradi.

«Odam-texnika» tipidagi kasblardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: qazib olingan tuproq, tog' jinslariga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: buldozer mashinisti, burg'ulash kurilmasining dizelisti, kon texnigi, muxandis-geolog va shunga o'xshashlar; nometall sanoat materiallari, buyumlar, chala mahsulotlarga ishlov berish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: duradgor, keng profildagi optik, to'quvchi, tikuvchi-modeler, muxandis-texnolog va boshqalar; metall ishlab chiqarish va unga ishlov berish, mashinalarni, priborlarni mexanik usulda yig'ish va montaj qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: tokar, programma bilan boshqariladigan stanoklar operatori, slesar-asbobsoz, texnik-metallurg, yarim avtomat mashinalarda elektr bilan payvandlovchi va hokazo; texnologiya mashinalari, jihozlari, transport vositalarini remont qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: ta'mirlovchi-chilangar, texnologik jihozlar sozlovchisi, muxandis-mexanik va boshqalar; binolar, inshootlar, konstruksiyalarni montaj, tamirlash bilan bog'liq bo'lgan kasblar: armaturachi-betonchi, qo'lda ishlatiladigan asbob bilan kavsharlovchi-elektr payvandlovchi, chilangar-tamirlovchisi, arxitektor va boshqalar; elektr jihozlarini, priborlarni va apparatlarni yig'ish, montaj qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: elektr montajchi, radioapparatlar va priborlar montajchisi, mikrosxemalarni yig'uvchi, soatsoz yig'uvchi, injener-fizik va boshqalar; elektr jihozlari, priborlar, apparatlar remonti, sozlanishi va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: radio va televizion apparatlarga xizmat ko'rsatish va ularning remonti bo'yicha radiomexanik, elektrochilangar, programma bilan boshqariladigan stanoklarni sozlovchi, elektr aloqalari texnigi, radio-fizik va boshqalar; yuk ko'tarish, transport vositalarini qo'llanish va ularni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblar: avtomobil haydovchisi, mexanizator, aviakompaniyalarnining uchuvchisi, avtomobil transportidan foydalanish muxandisi va boshqalar; qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan kasblar: oshpaz, nonvoy, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha muxandis-texnolog va boshqalar.

Texnika ob'ektlarini qayta ishlash, o'zgartirish, qayta joylashtirish yoki baholashda xodimdan nihoyatda aniq ishlash, o'z hatti-harakatlarida qat'iyatli bo'lish talab qilinadi. Modomiki texnika ob'ektlari amalda har doim odamning o'z qo'li bilan yaratilar ekan, texnika olamida novatorlik, fikr-mulohaza qilib ko'rish uchun, texnika ijodkorligini namoyish qilish uchun ayniqsa katta imkoniyatlar mavjuddir. Ishga ijodiy yondashish bilan bir qatorda texnika sohasida odamdan yuksak darajada ijrochilik intizomi talab qilinadi.

Quyidagi savollarga javob bering:

Bu ishlar sizga yoqadimi, quyidagi ishlarni tayyorlashni xohlarmidingiz:

1. Yangi materiallar, asboblarni, mashinalar to'g'risida bilishni istaysizmi?
2. Qandaydir materiallarni, buyumlarni (gazlamalardan, yog'ochdan, qog'ozdan, metallardan yasalgan, oziq-ovqat mahsulotlaridan tayyorlangan va boshqa shunga o'xshashlarni) qarab chiqishni xohlaysizmi?
3. Buyumlarning xususiyatlarini va nimalarga ishlatilishini bilishni istaysizmi?
4. O'z qo'lingiz bilan buyumni, mahsulotni tayyorlash istagingiz bormi?
5. Yangi buyumlar o'ylab topishga yoki mavjud buyumlarni boshqacharoq qilib yasashga xohishingiz qalay?
6. Har xil predmetlarni yig'ib ishlash sizga yokadimi?
7. Kundalik turmushga kerak bo'ladigan narsalarni, maishiy texnikani, kiyim-kechaklarni tartibga solish (tamirlash, qaytadan yasash)ni yaxshi ko'rasizmi?
8. Texnik chizmalarni, sxemalarni tushuna olasizmi?
9. O'lchov vositalaridan foydalanishni bilasizmi?
10. Chizmalar chizishni bilasizmi?

Bordi-yu, siz ko'p savollarga «ha» deb javob berar ekansiz, chamasi, sizga «odam - texnika» tipidagi kasb to'g'ri keladi.

3. «Odam-odam» . Bu erda asosiy mehnat predmeti odamlardir. Mazkur mehnat sohasida mayllar, kiziqishlar qay darajada ekanini aniqlashda o`quv predmetlaridan tashqari, siz shaxsan o`zingiz jamoa bo`lib o`tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etib orttirgan tajribangiz ham yordam beradi.

Makzur tipga kiradigan quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin:

- Radioelektron apparatlar va priborlar montajchisi elektr va radiotexnika sohasida chuqur bilimga ega bo`lmog`i kerak.

Odamlarni o`qitish va tarbiyalash bilan, bolalar jamoasini uyushtirish bilan bog`lik, bo`lgan kasblar: maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi, ishlab chiqarish ta`limi ustasi, o`qituvchi va boshqalar;

ishlab chiqarishni boshqarish, odamlarga, jamoalarga rahbarlik qilish bilan bog`liq bo`lgan kasblar: avtotransport qorxonasining dispetcheri, ishlab chiqarishni tashkil etish bo`yicha muxandis-iqtisodchi va boshqalar; maishiy, savdo xizmati ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan kasblar: sotuvchi, sartarosh, kompleks qabul punktida buyurtmalarni qabul qiluvchi va boshqalar; axborot xizmati ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan kasblar, shaharlararo aloqa operatori, ma'lumotlar byurosining xodimi, ekskursovod va boshqalar; odamlarga axborot-badiiy xizmat ko`rsatish hamda badiiy jamoalarga rahbarlik qilish bilan bog`liq bo`lgan kasblar: klub xodimi, dirijyor va boshqalar;

tibbiy xizmati ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan kasblar: feldsher, tibbiyot hamshirasi, shifokor va boshqalar.

«Odam-odam» tipidagi kasblarga oid mehnatning asosiy mazmuni odamlarning o`zaro bir-biriga ta'sir ko`rsatishidan iboratdir. Bunday bir-biriga ta'sir ko`rsatishning muhim qismi o`zaro munosabatlar hisoblanadi.

Makzur tipdagi kasb bo`yicha muvaffaqiyatli ishlash uchun odamlar bilan aloqaga kirishish va ular bilan doimiy ravishda muloqotda bo`lishni, odamlarni tushunishni, ularning o`ziga xos-xususiyatlarini bilib muomala qilishni o`rganib olish kerak, shuningdek, ishlab chiqarish, fan, texnika, san'at va boshqa shu singari tegishli sohaga oid bilimlarni egallab olish lozim.

Odamlar bilan ishlash unchalik oson ishlardan emas. Misol uchun sotuvchilik kasbini olib ko`raylik. Sotuvchi ish vaqtida har daqiqa yangi-yangi odamlar bilan muomala qilishi kerak. Xaridorlar har xil bo`ladi: ular orasida o`ta sinchkovlari ham, mol tanlashda ikkilanib turadiganlari ham, haddan tashqari ko`p gapiradiganlari ham uchrab turadi va hokazo. Xaridorlar bilan muomala qila olish esa sotuvchining vazifasidir.

Bu erda sotuvchiga o`ziga xos iste'dod: og`irvazmin, xushmuomala, xush fe'l bo`lish mahorati zarur bo`ladi.

«Odam - odam» tipidagi kasb tanlash uchun juda muhim va zarur bo`lgan shaxsiy fazilatlarining qisqacha ro`yxati quyidagilardan iborat:

odamlar bilan ishlash jarayonida barqaror yaxshi kayfiyatda bo`lish;

odamlar bilan muomalada bo`lishga o`zida ehtiyoj sezish, jamoat, otaliq ishlarida sidqidildan ishtirok etish;

boshqa kishilarning niyatini, o`y-fikrlarini, kayfiyatini tushuna olish, fikran o`zini boshqa kishining o`rniga qo`yib ko`rish qobiliyati;

odamlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni tezda bilib olish, ko`pchilik kishilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi tushunish va bilish mahoratiga ega bo`lish; turli kishilar bilan umumiy til topa olish.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Boshqa odamlar sizni muomalada tez xafa bo`ladigan, tabiati nozik va sal gapni ko`ngli ko`tarmaydigan kishi, deb hisoblaydilar mi (tanqidga, tanbehga javob berishda)?

2. Muomala vaqtida paydo bo`lgan kayfiyat (quvonch, xafa-garchilik, qayg`u)dan ko`nglingizda qolgan narsalar uzoq muddat saqlanib qoladimi?

3. Sizning kayfiyatingiz goh ko`tarilib, goh tushib, yaxshi-yomon kayfiyatlar tez-tez almashinib turadimi?

4. Siz o`z nomingizga aytilgan tanqidiy fikrlarni ko`nglingizga og`ir olib, uzok vaqt iztirob chekib yurasizmi?

5. Sershovqin, quvnoq odamlar orasiga tushib qolganda qattiq charchamaysizmi?

6. Yangi odamlar bilan tanishishga to`g`ri kelib qolgan vaqtlarda qiynalib, istihola qilib yurmaysizmi?

7. Siz biror yangi gapni boshqa kishilardan so`rab bilishdan ko`ra uni kitobdan o`qib bilib olish oson va qulay deb hisoblaysizmi?

8. Sizda yolg`iz o`zingiz qolib, tinch-osoyishta bir joyda dam olish istagi tez-tez bo`lib turadimi?

9. Birov bilan gaplashayotgan vaqtingizda kerakli so`zlarni topib aytish uchun uzoq vaqt o`ylamaysizmi?

10. Siz juda ko`p yangi tanishlar orttirishdan ko`ra kichik bir davradagi doimiy do`stlarni afzal ko`rmaysizmi?

Basharti, mana shu savollarning ko`pchiligiga siz «ha» deb javob beradigan bo`lsangiz, u holda, aftidan, odamlar bilan bog`liq bo`ladigan kasblar sizga unchalik to`g`ri kelmaydi. Har holda bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun o`z ustingizda ko`proq ishlashingizga to`g`ri keladi.

4. «Odam-belgilar tizim». Kasblarning bu tipida shartli belgilar, raqamlar, kodlar, tabiiy yoki sun'iy tillar asosiy etakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Hozirgi zamon kishisi belgilar va belgi tizimlari dunyosida tekstlar, chizmalar, sxemalar, kartalar, jadvallar, formulalar, yo`l belgilari ichida yashaydi. Binobarin, bularning hammasini biladigan tegishli mutaxassislar ham zarur.

«Odam-belgilar tizimi» tipidagi kasblar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

hujjatlarni (ona tilida yoki chet tilida) rasmiylashtirish, ish yuritish, matnlar va ularning qayta yozilishi, qayta kodlashtirilishi bilan bog`liq bo`lgan kasblar: tarjimon, sekretar-mashinistka, telegrafchi, texnik redaktor va boshqalar;

sonlar, miqdoriy nisbatlar mehnat predmeti hisoblangan kasblar:

hisoblash mashinalarining operatori, nazoratchi-g`aznachi, dasturchi, hisobchi, texnik-rejalashtiruvchi va boshqalar;

shartli belgilar tizimi, ob'ektlarning sxematik tasviri ko`rinishidagi axborotlarni qayta ishlash bilan bog`liq bo`lgan kasblar: chizmachil, topograf, texnik-geodezist, muxandis va boshqalar.

Mazkur tipdagi kasblarning birortasida muvaffaqiyatli ishlash uchun mana shu belgilar olamiga, sirtidan qaraganda quruq belgi bo`lib ko`rinadigan olamga hayolan sho`ng`ib ketadigan, tevarak-atrofni o`rab olgan hayotdagi predmetli xususiyatlarni birdan unuta oladigan va butun diqqat-e'tiborni u yoki bu belgidan iborat ma'lumotlarga qarata oladigan darajadagi alohida qobiliyat zarur bo`ladi. Shartli belgilar shaklidagi axborotlarni qayta ishlash vaqtida ma'lumotlarni nazorat qilish, tekshirish, hisobga olish, qayta ishlash vazifasi, shuningdek, yangi-yangi belgilar, belgi tizimlarini yaratish vazifasi paydo bo`ladi.

Turli predmetlar, stanoklar, hisoblashlar, chizmalar, sxemalar, yozuvlar olib borish, har xil turdagi ma'lumotlar (gazetalardan qirqib olingan maqolalar, hujjatlardan ko`chirmalar), bir tildan ikkinchi tilga qilingan tarjimalarning tartibga solib to`planishi va saqlanishi bo`yicha bajargan yozma ishingizda o`z tajribangizga baho berishga harakat qilib ko`ring. Agar mana shu ishlarni siz erinmasdan qiziqish bilan bajargan bo`lsangiz, ehtimol, bu sizning kelgusidagi mashg`ul bo`ladigan ishingiz professional faoliyat ko`rsatadigan sohangiz bo`lib kolishi mumkin.

5. «Odam badiiy obraz». Kasblarning bu tipida badiiy obrazlar, ularning tuzilish usullari etakchi mehnat predmeti hisoblanadi. Bu erda quyidagi kasblarni ajratib ko`rsatish mumkin:

tasviriy faoliyat bilan bog`liq bo`lgan kasblar: badiiy mebellar ishlab chiqarish bo`yicha duradgor, toshga o`yib gul soluvchi, yoritish elektrotexnigi (teatrda), poyabzal konstruktör-modeleri, dizayner-rassom va boshqalar;

musiqqa faoliyati bilan bog`lik bo`lgan kasblar: pianino va royallarni sozlovchi, orkestr artisti, bastakor va boshqalar;

adabiy-badiiy faoliyat bilan bog`lik bo`lgan kasblar: badiiy adabiyot muxarriri, adabiy xodim va boshqalar;

aktyorlik-sahna faoliyati bilan bog'lik bo'lgan kasblar: teatr artisti, estrada artisti va boshqalar. «Odam badiiy obraz» tipidagi kasblarning o'ziga xos-xususiyatlaridan

biri shundan iboratki, xodim amalga oshirgan, sarf qilgan mehnatining anchagina qismi tashqi tomondan qaragan kishining ko'ziga ko'rinmay, yashirincha qoladi. Bundan tashqari, mehnatning so'ngi natijasiga erishish uchun, ya'ni ijroning engil, zo'riqmasdan bajarilishi va o'ynalayotgan rolning tabiiy chiqishi uchun ko'pincha maxsus kuch-g'ayrat sarf qilishga to'g'ri keladi.

Chunonchi, sahnada bor-yo'g'i bir necha daqiqa davom etadigan tomoshani ko'rsatish uchun artist har kuni bir necha soatlab mehnat qilishi kerak. Mazkur tipdagi kasbni tanlamoqchi bo'lsangiz, mehnatning mana shu yashirin tomoni to'g'risida o'ylab ko'ring, ehtimol, bu ishni bajarish sizning ko'lingizdan kelmay qolishi ham mumkin.

Shunday qilib, biz mehnatning boshqa tipini ajratib ko'rsatdik va ularning har birini o'ziga muvofiq ravishda Tab., T, O, B.t., B.o., harflari bilan belgilab chiqdik. Bu harflar piramidaning birinchi yarusi qavatini tashkil etadi (1-rasmga qarang).

1. Kasblarning tiplari qanday atalishini ayting, har bir tipga qisqacha xarakteristika bering.
2. Sizda kasblarning qaysi tipiga kiziqish uyg'ondi? O'z javobingizni asoslab berishga harakat qiling.
3. Maktab yonida joylashgan korxonadagi qanday kasblarni bilasiz? Ularni ko'rib chiqilgan klassifikatsiyaning qaysi tiplariga kiritish mumkin?

Kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablar

Agar kishining salomatligi yaxshi bo'lmasa, u muayyan kasbda ishlash uchun shifokorlar xulosasi bo'yicha yaroqli emas, deb topilgan bo'lsa o'sha kishi mazkur kasbga yaroqsiz deb hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, kishi mazkur ishni

yo mutlaqo bajara olmaydi yoki bu ish uning sog`lig`idagi (hozircha, balki, uncha sezilmaydigan) o`zgarishlarni ko`paytirib, dardini kuchaytiradi.

Kishining salomatligi ma'lum bir kasb talablariga muvofiq kelish-kelmasligini aniqlash - shifokorning vazifasidir. Shuning uchun ham ishga yoki ta'lim muassasiga kirayotgan har bir kishi, albatta, tibbiy ko`rikdan o`tadi.

Lekin ko`pincha shunday bo`ladiki, kishi o`zining nazarida kasb tanlab bo`lganidan keyin bunday tibbiy ko`rik amalga oshiriladi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o`z vaqtida shifokor bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Kasb tanlayotgan har bir kishi organizm uchun noqulay deb hisoblanadigan omillarni bilib olmog`i kerak. Bu hol unga o`z imkoniyatlarini to`g`ri baholashga yordam beradi. Xo`sh, bular qanday omillar? Ba'zi hollarda bular - katta jismoniy nagruzkalar, optimal mikroiklimdan chekinilgan vaqtlar (haroratning past yoki yuqori bo`lishi) hisoblansa, boshqa hollarda bu omil ortiq darajadagi chang-to`zondan, shovqin va tebranishdan, uchinchi bir hollarda esa zaharli moddalarni ishlatishdan iborat bo`ladi va hokazo.

Mehnat sharoitining odam organizmiga ko`rsatadigan ta'siri bo`yicha kasblarni to`rt guruxga ajratish mumkin. Birinchi guruxga mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo`lgan kasblar kiradi. Misol tariqasida soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko`rsatish bilan bog`liq bo`lgan kasblarni keltirish mumkin. Bu ishchi kasblari ichida eng ko`p sonli guruxdir.

Ikkinchi gurux kasblari, masalan, oshpazlik kasbi ishlab chiqarish omilining mo`ttadil yoki notekis ta'sir etishi bilan bog`liq bo`lgan kasblardir. Bunday kasblar bo`yicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik va boshqa shu singari omillar ta'sir ko`rsatadi. Bu esa tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishiga sabab bo`ladi. Binobarin, bunday kasblarni faqat termoregulyatsiyasi yaxshi bo`lgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir sistemasida, nafas organlarida kasalligi bo`lmagan kishilargagina tavsiya etish mumkin.

Uchinchi gruppaga har xil noqulay ishlab chiqarish omillarining yig'indisi xarakterli bo'lgan kasblar kiradi. To'qimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, o'pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo'lgan (yoki kasallik alomatlariga moyillik sezilgan), ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilar uchun bu kasb to'g'ri kelmaydi.

To'rtinchi gruppaga og'ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kasblardan iboratdir. Masalan, elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi.

Bizning davlatimiz har bir kishining sog'lig'i to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, kasb kasalliklarining oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimli amalga oshiriladi. Kichik mutaxassislariga bir qator engilliklar yaratib berilgan ishlab chiqarish korxonalari hamda kasb-hunarlarning ro'yxati belgilab chiqilgan va tasdiqlangan. Mana shu ro'yxatga kirgan kasbda ishlovchi kishilar tegishli imtiyozlardan foydalanadilar: ular uchun qisqartirilgan ish kuni, qo'shimcha ta'til, parhez taomlar, 45-50 yoshdan boshlab pensiya bilan ta'minlashni xuquqi va boshqa shu singari imtiyozlar berilgan.

Biror kasb tanlanayotgan vaqtda tibbiyot ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi eng avvalo kasallik xarakteri bilan belgilanadi. Tanlangan kasbga sizning sog'lig'ingiz to'g'ri kelish-kelmasligi haqidagi xulosani faqat shifokor berishi mumkin.

Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, turli kasalliklarga organizmning qarshilik ko'rsatish imkoniyatlari juda katta bo'lib, odam o'zi sevgan kasbini egallash uchun butun iroda kuchini ishga solib kasallikni engishi mumkin.

Har bir kishi yoshligidan boshlab o'z salomatligi to'g'risida o'ylashi, gigiena sohasidagi bilimlarini, birinchi tibbiy yordami ko'rsatish malakalarini egallab olishi, sog'lom turmush tarzi bilan yashashni o'rganib olmog'i kerak. Organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, mehnat va dam olish, ovqatlanish rejimiga rioya qilish, o'z bo'sh vaqtini oqilona tashqil etish va boshqa shunga o'xshash tadbirlar jismoniy jihatdan baquvvat va sog'lom bo'lib o'sishning

zarur shartlaridir. Sogʻlom boʻlib oʻsishni istagan kishi spirtli ichimliklar ichish va chekish singari yaramas odatlardan batamom voz kechishi kerak, albatta. Chunki ular organizmga nihoyatda zararli taʼsir koʻrsatadi: sogʻliqni ishdan chiqaradi, qiziqish doirasini toraytiradi, aqliy aktivlikni pasaytiradi va nihoyat, shaxsni tanazzulga olib keladi.

1. Kasb tanlash vaqtida nima uchun salomatlikni hisobga olish kerak?
2. Organizm uchun qanday ishlab chiqarish omillari noqulay omillar hisoblanadi?

Siz tanlagan kasbdagi mutaxassislar qanday mehnat sharoitida ishlashini aniklang. U kasbni qaysi guruxga kiritish mumkin?

II. O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH TIZIMI

1. Ta'lim tizimi

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

2. Ta'lim turlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar boqchasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lim (1-1V sinflar);
- umumiy o'rta ta'lim (1-1X sinflar).

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yotgi yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil ztilishi mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-zestetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun xujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim olish tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasida 59 ta institut va universitetlar va rivojlangan chet davlatlarning 6 oliy o'quv yurtlari filiallari faoliyat yuritmoqda.

AKADEMIK LITSEYLAR VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2010 yil 7-iyun, 109-son qaroriga asos "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risida ” nizom qabul qilindi.

Mazkur nizom umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'zlari va ota-onalari tomonidan tanlangan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishni tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tarkibida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim yo'nalishlari bir-biridan tubdan farq qiladi:

Akademik litseylar yo'nalishlari:

Aniq fanlar: matematika, fizika;

Tabiiy fanlar: biologiya, kimyo;

Xorijiy tillar: ingliz, fransuz, nemis va boshqa xorijiy tillar;

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: ona tili va adabiyoti, tarix, geografiya;

San'at yo'nalishi;

Kasb-hunar kollejlari yo'nalishlari:

Sanoat, politexnika, maishiy xizmat ko'rsatish, qurilish, qurilish – kommunal, engil sanoat, tibbiyot, temir yo'l transporti, radiotexnika va avtomatika, pedagogika, transport, matbaa (tipografiya), avtomobil yo'llar, yuridik, Olimpiya zahiralar, sport, informatika, texnologiya, axborot texnologiyalari, geodeziya va kartografiya, iqtisodiyot va biznes, moliya va iqtisodiyot, iqtisodiyot va servis, soliq, bank, ixtisoslashtirilgan sanoat, menejment va texnologiyalari, gidrometeorologiya, aloqa, televidenie va radio, rassomchilik, milliy hunarmandchilik, turizm, dizayn, mashinasozlik, tijorat va tadbirkorlik, Estrada va sirk, xoreografiya, madaniyat, aviasozlik, mehmonxona xo'jaligi va boshqa yo'nalishlar.

2.2. O'QUVCHI YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMI


Kasbga yo`naltirish ishining pedagogik asoslari

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g`oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o`rta umumiy ta`lim maktabi ishida katta o`rin tutadi. “Kim bo`lsam ekan” degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog`liq. Kasbni to`g`ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faolitada eng yuksak ko`rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko`p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo`lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini birmuncha to`la amalga oshirish imkonini beradi. Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to`g`risida g`amxo`rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk davrlarida bu tajriba meros bo`lib qolar, avloddan-avlodga o`tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo`yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga yoshlarni har tomonlama va uyg`un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni milliy g`oyaviy, ma`naviy-ahloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim tarbiya jarayonini, uning butun yaxlitlik bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Xalq talim vazirligi tassarufidagi o`quv muassasalarida shu sohadagi bir qator qarorlarida takidlab o`tilganidek, vujudga keltirilayotgan kasbga yo`naltirishning davlat tizimida umumiy ta'lim maktabiga, o`qituvchiga etakchi o`rin ajratilmokda. Ayni o`qituvchi mehnat ahliga bo`lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, umummehnat va kasbiy mahorat hamda malakalarni egallashdagina

emas, balki kasbni to'g'ri tanlashda ham o'smirlarga yordam berishi lozim. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin.



Maktabda kasbga yo'naltirish ishi zarur natijalarni berishi uchun u uzluksiz jarayon bo'lishi va o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan iborat bo'lishi lozim.

Ilk kasbga yo'naltirish (I-IV sinflar) bolalarni mehnatga tayyorlashdan, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni kasblar, mehnat olami bilan tanishtirishdan, ularda o'z mehnati bilan boshqalarga naf keltirish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Bunga esa bolalarni qo'ldan keladigan ijtimoiy-foydali mehnatga, o'quv va o'yin faoliyatining har xil turlariga jalb etish mumkin.

O'rta bo'g'inda (V-VII sinflar) maktab o'quvchilari ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga kirishadilar, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari, mehnat faoliyatining aniq sohasiga bo'lgan qiziqish shakllanadi.

Navbatdagi bosqichda (VIII-IX sinflar) o'quvchilarda tizimlashtirilgan bilimlar, kasblar olamida mo'ljallanish mahorati, aniq kasbga bo'lgan qiziqish shakllanishi lozim, asosiy e'tibor yuqori sinf o'quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga tayyorlash ijtimoiy-kasbiy jihatdan bir maqsadni ko'zda tutganligiga qaratilishi kerak.

Kasbga yo'naltirish ishining maktab tizimi

Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida maktab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish ishi maktab tizimining vazifalariga:

- shaxsning milliyg'oya asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashdan;
- politexnik va boshlang'ich kasbiy malakalarning muayyan tizimini egallagan bo'lg'usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan;
- ham shaxsiy mehnat, ham jamoa mehnati muayyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hozirlashning umumiy qismi bo'lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda kasb-hunar ta'limi tizimining shundan keyingi hamma bosqichlarida kasbiy ma'lumot yoki oliy ma'lumot olish jarayoni jadallashadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash - butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va tashkilot-korxonalar jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'naviy-psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smirning shaxsi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlari boshlang'ich mehnat tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallashga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Ta'lim va kasbga yo`naltirish bilan qo`shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko`p pedagogik samara beradi. O`rta umumta'lim maktablarni tamomlab yoki kasb-hunar kollej ta'limi tuzilmasida, o`quv texnik markazlarida zarur tayyorgarlikdan o`tib, bozor iqtisodiyotining turli tarmoqlarida darhol ishlay boshlagan yoshlarning soni yil sayin ko`payib bormoqda.

Maktabda kasbga yo`naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida maktab rahbari raisligida kasbga yo`naltiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga maktab rahbarining tarbiyaviy ishlar bo`yicha muovini, kasbga yo`naltiruvchi o`quv-metodik xona mudiri, psixolog, mehnat ta'limi, o`kuvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo`naltiruvchi o`qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning sinf rahbari, maktab kutubxonachisi, maktab o`quvchilar tashkilotining vakillari, maktab vrachi, ota-onalar qo`mitasining a'zolari, xokimiyat va xalk ta'lim bulimlari, tashxiz markazlari vakillari kiradi.

Kasbga yo`naltiruvchi kengashning ish rejasini xalq ta'limi bo`yicha maktab kengashi ko`rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Kasbga yo`naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo`naltirish bo`yicha umummaktab va sinflarning tadbirlarini rejalashtirish va tashkil qilishdan, kasbga yo`naltirish ishiga oid ilg`or tajriba ma'lumotlarini yig`ish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. Kasbga yo`naltiruvchi kengash tuman o`quv texnik markazlarda, xalq noiblari tuman xokimiyati huzuridagi yoshlarni kasbga yo`naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar kollejlarning ta'limi tuzilmasidagi o`quv yurtlari, korxonalar va tashkilotlar, o`quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog`lab turadi.

Kasbga yo`naltirish ishini rejalashtirgan chog`da kengash mahalliy sharoitlarni va maktab ishining o`ziga xos-xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Kengashning kasbga yo`naltirish ish rejasi maktab ta'lim-tarbiya ishi umummaktab rejasining tarkibiy qismidir.

Kasbga yo`naltirish kengashining majlislariga tuman o`quv texnik markazlari xodimlari, muassasalar, yaqin joylashgan korxona, qishloq kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlarining vakillari, balog`atga etmaganlar ishi bo`yicha komissiya a`zolari va mehnat resurslaridan foydalanish organlarining vakillari taklif qilinadilar.

Sinf rahbarining vazifalari avvalo o`quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayllari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o`rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o`qituvchilari, ota-onalar bilan suhbatlar, savol varaqasini to`ldirish va o`quvchining shaxsiy varaqacha tavsifnomasini to`ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o`quvchining shaxsini o`rganish negizida muayyan dastur asosida bir maqsadga qaratib kasbga yo`naltirish ishini olib boradi. Bunda sinf soatlaridan, fakultativ mashg`ulotlardan va ekskursiyadan foydalanadi. Kasbga yo`naltirish ishi o`quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada o`tkaziladi.

Mehnat o`qituvchisi o`z ishida bilim va malakani egallashda o`quvchilarga eng ko`p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan ish shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Laboratoriya-amaliy, o`quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, ishlab chiqarish tajribasi shunday ish shakllari va metodlari jumlasiga kiradi. Bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o`z ichiga oladi (yukorida aks ettirilgan bobda bu haqida batafsil ma'lumot berilgan).

Mehnat o`qituvchisi mehnat ta'limi jarayonida kasb qilib olingan mehnat to`g`risidagi ma'lumotlarni aniq mavzularni o`rganish bilan mantiqiy bog`lashi mumkin. Chunonchi, fizika fanining elektrotexnika bo`limini o`rgangan chog`da o`qituvchi bozor munosabatlari sharoitida elektr quvvatining ahamiyatini, uni ishlab chiqarish hamda iste'molchiga etkazib berish usullarini ko`rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruhga bo`linishini tushuntirib berishi mumkin. Birinchi guruhga elektrotexnika uskunalari, mashinalari,

apparatlari va asboblarini ishlab chiqarish bilan bog`liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig`uvchi slesar, sozlovchi slesar, o`rovchi elektro-montyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruhga elektr quvvatini o`zatish bilan bog`liq kasblar (podstantsiyalarning elektro-montyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektro-montyor va shu kabilar); uchinchi guruhga elektr quvvatidan foydalanish bilan bog`liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta'mirchi elektro-montyor va shu kabilar) kiradi.

O`quv jarayonida kasbga yo`naltirish vazifalariga muvofiq fan o`qituvchilari uchun ish bosqichlari quyidagicha:

- dasturda kasbga yo`naltiruvchi mazmunni kiritish maqsadga muvofiq bo`lgan mavzularni belgilash;

- u yoki bu mavzu mazmuniga eng mos bo`lgan kasbga yo`naltiruvchi matnni berish shakllarini belgilash, tegishli ko`rgazmali qurollar, video lavhalar tanlash;

- bozor iqtisodiyoti tarmoqlari to`g`risidagi va mazkur fanga oid mazmun bilan bog`liq asosiy kasblar haqidagi adabiyotni o`rganish. Bunda o`z iqtisodiy tumanidagi kasblarni o`rganishga alohida e'tibor berilishi kerak. Darslarda o`quvchilarni tanishtirish mumkin bo`lgan kasblar ro`yxatini aniqlab olish;

- o`quvchilarning qiziqishlari va mayllarini o`rganish, ularni o`quvchilar va sinf rahbarlari bilan birga muhokama qilish natijalarini qayd qilish;

- o`quvchilarda o`rganilayotgan fanga va u bilan bog`liq kasblarga qiziqish va havasni shakllantirish maqsadida ular bilan yakka-yakka ishlarni muntazam ravishda olib borish;

- maktabda kasbga yo`naltirish xonasidagi mazkur fanni o`rganish bilan bog`liq kasblarga oid materiallarni yangilab turish;

- kasbga yo`naltirishga, pedagogikaga va shaxs psixologiyasiga oid, uni o`rganish metodlariga doir o`z bilimlarini chuqurlashtirish bosqichlarini ko`rsatish mumkin.

Mehnat o`qituvchisi, sinf rahbari va fan o`qituvchilari birgalikda ishlashining asosiy maqsadi shuki, o`quvchilar bilan guruhda va individual ish olib borishning turli shakllari va metodlaridan foydalanib, iqtisodiy tumanlarning talab-ehtiyojlarini hisobga olib, o`quvchilarni kasblarni asoslangan tarzda tanlashga tayyorlashdir.

Shunday qilib, kasbga yo`naltirish ishining mazmuni:

- politexnik ta'lim, maktabdan tashqari va sinfdan tashqari ish jarayonida o`quvchilarni bozor iqtisodiyotining turli tarmoqlari (sanoat, transport, aloqa, kurilish, uy-joy kommunal xo`jaligi, qishlok va o`rmon xo`jaligi, sog`likni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ijtimoiy-iqtisodiy soxa, savdo umumiy ovqatlanish va xizmat ko`rsatish soxalari), eng ommalashgan kasblar bilan tanishtirishni;

- ishlab chiqarish sharoitlarida turli ishlarni bajarish uchun zarur bo`lgan ko`nikma va malakalarni o`quvchilarga singdirishni, mehnat ta'limi jarayonida ularda kichik mutaxassislar kasblariga qiziqishni tarbiyalashni;

- bolalarning texnik ijodkorligi, tajribachilik va ta'lim-tarbiya ishining boshqa shakllari jarayonida o`quvchilarda kasbkorlik qobiliyatlarini, mayllarini va qiziqishlarini rivojlantirishni;

- o`quvchilarda ishchi kasblariga qiziqish va hurmat bilan qarashni tarbiyalashni, o`quvchilarni ana shu kasblarni tanlashga tayyorlash hamda maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikda ish olib borish tizimida mehnat va kasbiy an'analarni qo`llab-quvvatlashni;

- pedagogik maslahatlar berish yo`li bilan kasbni to`g`ri tanlashda o`quvchilarga yordam berishni o`z ichiga oladi.

Maktab o`quvchilarni kasbga yo`naltirish jarayonida ularda kasbga bo`lgan qiziqishlar va ideallarning axloqiy asoslarini, kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan vaj-sabablarini shakllantiradi.

Kasbga yo`naltirish ishi - butun pedagoglar jamoasining ishidir. Bu ish ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo`lib qolishi lozim. Shu bilan birga bu

ishni muvaffaqiyatli olib borish uchun umumiy ta'lim maktabi imkoniyatlari doirasidan kelib chiqadigan maxsus ish shakllarini joriy etish zarur. Bunday ish shakllariga, avvalo, aniq kasblarga oid mehnat mazmuni va shu kasblarning odamga qo'yadigan o'ziga xos talablari to'g'risidagi axborot, ish va kasbga o'rgatish sharoitlari haqidagi, korxonalarda va ta'lim muassasalarida kadrlarga bo'lgan talablar to'g'risidagi axborot, kasblar haqida maslahatlar berish kiradi. Shuning uchun ham maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishini o'tkazishga korxonalarni, jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, kasbga oid maxsus maslahat punktlarini tuzish kerak bo'ladi, bunday punktlarda o'quvchilar va ularning ota-onalari kasb tanlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishlari mumkin. Bularning hammasini kasbga yo'naltirish xizmati deb atash mumkin. Bunday xizmatning vazifasi - o'quvchilarni aniq kasbga yo'naltirish masalasini to'g'ri hal qilishda maktabga yordam berishdan iboratdir.

Kasb tanlashga doir reja tuzish

Endi siz o'z mehnat faoliyatingizni yaqin kelajakda va uzoq istiqbolda qanday tasavvur etishingizni qog'ozga tushirishga, ya'ni shaxsiy kasbga doir rejangizni tuzib chiqishga harakat qiling.

Albatta kasbga doir planning yagona bir shaklini tavsiya etish qiyin uning mazmuni ham, tuzilish yo'li ham kishining aql idrokiga, uning umumiy bilim saviyasiga, e'tiqodi va boshqa ko'p narsalarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun biz mana shu aytilgan omillarning faqat eng asosiysi ustida rejada, albatta, ko'rsatilishi shart bo'lgan omil to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Ko'zda tutilgan asosiy maqsad rejaning negizini tashkil etishi kerak, ya'ni unda nima ish bilan shug'ullanish, kim bo'lib etishish, umumxalq ishiga qanday hissa qo'shish, bu ishda kimlarga tenglashish o'z aksini topmog'i kerak. Shundan keyin mazkur maqsadga erishmoq uchun har bir kishi o'z imkoniyatlariga: qizikishlari, mayllari va qobiliyatlariga, salomatligiga, irodaviy sifatlariga real baho berishga harakat qilib ko'rishi zarur.

Kasbga doir reja tuzish vaqtida maqsadga erishish yo'llari va vositalarini: o'z kuchini qaerda va qanday qilib sinab ko'rish mumkinligini, kerakli ma'lumotni qaysi ta'lim muassasaridan olish mumkinligini, kasb mahoratini qanday qilib oshirish mumkinligi va hokazolarni belgilab olish kerak.

O'z maqsadingizga etishish yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni ham oldindan ko'ra bilish kerak, bu behuda iztirob chekishning oldini olish va mabodo zarur bo'lib qolsa, tanlangan kasbni boshqasi bilan almashtirish imkonini beradi.

Kasbga doir rejada kishining o'z-o'zini tarbiya kilish dasturi: kasbiy jihatdan muhim bo'lgan qanday fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish, o'z sog'lig'ini qanday qilib mustahkamlash mumkinligi va boshqa shu singari tadbirlar ham o'z ifodasini topishi kerak. O'z bilimini mustaqil oshirib borish o'z ustida ishlash masalalariga ham: qanday adabiyotni o'qish, qanday to'garaklarda yoki qiziqish bo'yicha tuzilgan guruxlarda shug'ullanish, qanday ko'rgazmalarni borib ko'rish singari masalalarga ham alohida e'tibor berish lozim.

Shunday qilib, o'zingiz ko'rib turganingizdek, shaxsiy kasbga doir rejalar yaxshi va har tomonlama o'ylangan bo'lishi kerak, ularni tuzish vaqtida har bir kishi mustaqillik ko'rsatishi va mas'uliyatni his etib turishi lozim.

Tuzilgan kasbga doir rejaga vaqt-vaqti bilan murojaat qilib turish kerak bo'ladi. Qiziqishlar chuqurlashib, kasb to'g'risidagi bilimlar ortib, amaliy faoliyat sohasida muayyan tajriba to'planishiga qarab reja ham o'zgarib borishi, u ancha real rejaga aylantirilishi mumkin.

Quyida misol tariqasida kasbga doir rejaning fragmenti qanday o'zgarib borishi mumkinligini keltirib o'tamiz. Bu o'zini qishloq xo'jalik ekinlari etishtirish bilan bog'liq bo'lgan ishga bag'ishlagan kishining rejasidir:

- biologiya va qishloq xo'jalik ekinlari (sabzavotchilik) agrotexnikasiga oid adabiyotlarni o'qib-o'rganish;

- biologiya va qishloq xo`jalik ekinlari agrotexnikasiga doir qiziqarli kitoblar va maqolalar nomini to`plab kartoteka tuzish, mazkur masalaga doir kitoblarni yig`ib kutubxonacha tashkil etish;

- o`quvchilar fermer dalalarida ishlab, mo`l hosil olinishiga erishish;

- sabzavot ekinlari etishtirish sohasidagi ish tajribalari yuzasidan jamoa fermerlardan, ilmiy muassasalarning xodimlari va olimlaridan topshiriqlar olish uchun ular bilan aloqa o`rnatish;

- boshqa maktablarning yosh tabiatshunoslari bilan tajriba almishish.

Kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar

To`g`ri kasb tanlash bu oson ishlardan emasligini endi o`zingiz ham bilasiz. Demak, kasbni shunday tanlash kerakki, kelgusida bajaradigan ishingiz o`zingizda qoniqish hosil qilsin va jamiyatga foyda keltirsin.

Birdaniga yuksak yoki oliy malakali kasbni nazarida tutib ish ko`rish kerak. Har qanday faoliyat sohasida mahoratning dastlabki bosqichlaridan muvaffaqiyatli o`tgan kishilar mehnatda yuksak natijalarga erishadilar.

Masalan, kimki dastlab kichik mutaxassis bo`lib ishlagan bo`lsa, u yaxshi muxandis bo`lib etishishi mumkin, kimki o`z vaqtida tirishqoq bo`lgan bo`lsa va ishining barcha nozik tomonlarini bilsa, o`sha kishi yaxshi rahbar bo`lishi mumkin.

1. O`quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o`ziga bo`lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql farosati, dadil ishlari o`quvchiga ma'qul bo`ladi.

Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug`ullanayotgan ishga ham o`tadi. Binobarin, o`smir unga taqlid kilish yo`lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o`xshash bo`lishni emas, balki o`zini ham ana shu kasbga bag`ishlashni istaydi. Bunda o`quvchi o`sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo`lishi mumkinligi haqida o`ziga ko`pincha hisob bermaydi.

2. O`quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O`smir maktabdagi fanlarni o`zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko`pincha bo`lg`usi kasbini belgilaydi. O`quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo`lsa, bu u adabiyotni amaliy

jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi.

U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqtiruvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. Kasbning tashqi jihati bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu - mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar.

4. Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurning mavjudligi navbatdagi kamchilikdir. Yoshlarimiz, odatda, engil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun etarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar.

5. O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. O'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. Shu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

6. O'quvchilarning bu yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaslik. Masalan mayda ish (Uz. DEU, Fayz-xolding, Uzavtotexxizmat, aniq asbobsoz ishlab chikarish korxonasi va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda

ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, o'smir geolog bo'lishni xohlasa ham lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va erdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonlarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga qabul qilmaganlarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

7. O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash. O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaydi chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. Shu tariqa o'quvchi «Men ular bilan birga bo'laman, chunki menga baribir» deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi: noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqitirmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

8. Tasodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash. Ba'zan o'smir mexanika ishlab chiqarish korxonasi xonadonimizga yaqin bo'lgani uchun chilangar bo'lib ishga kirdim, deydi. Ammo o'zi bu kasbni uncha yoqtirmaydi. Pedagogika yo'nalishdagi o'quv muassasiga kirishga konkurs uncha katta bo'lmaganligi yoki keyinchalik boshqa oliy o'quv yurtlariga o'tqazib ketaman degan fikr bilan bilim dargohida o'qishga qaror qildim, deyishadi ayrim yoshlar. Biroq ular o'qituvchi bo'lishni hayollariga ham keltirmagan bo'ladilar.

Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olish

Qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar

Qiziqish va mayllar. Qiziqish deganda odamning u yoki bu predmetga qaratilgan aktiv bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda

qiziqishlar bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishga va faoliyat ko`rsatishga bo`lgan intilishidir.


Qiziqishlar o`zining mazmuni, ko`lami, uzoq davom etishi va teranligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Qiziqishlarning mazmuni va ko`lami odamning bilim darajasini hamda har narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Qiziqishlarning teranligi va uzoq vaqt davom etishi ularning barqarorligini ko`rsatadi.

Qiziqishlar o`z taraqqiyoti mobaynida bir nechta bosqichdan o`tadi. Dastlab ular vaqtincha, epizodik xarakterda bo`ladi hamda muayyan bir predmetga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo`ladi. Bunday qiziqishlar rivojlantirib borilmasa, ular tez orada susayib ketadi yoki mutlaqo so`nadi.

U yoki bu predmetning chuqur va muntazam ravishda o`rganib borilishiga, ehnat

faoliyatining qiziqqan sohasiga sinchkovlik bilan kirishib ketilishiga qarab qiziqishlar mustahkamlanib, kuchayib borishi va asta-sekin barqaror qiziqishga aylanib qolishi mumkin (2-rasm). Bunday qiziqishlar ko`pincha o`sib, ulg`aya borib, maylga - kishining muayan faoliyat bilan shug`ullanishga bo`lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o`z bilimini oshirib borish uchun intilishiga aylanadi.

Agar qiziqishlar «bilishni istayman» degan formula bilan ifodalanadigan bo`lsa, mayllar «bajarishni istayman» degan formula bilan ifodalanadi. Hayvonlar to`g`risidagi kitoblarni o`qishga bo`lgan qiziqish hayvonot bog`iga borib turishni yaxshi ko`rish, «Hayvonot olamida» deb ataladigan televizion ko`rsatuvning birortasini qo`ymay ko`rib borish boshqa-yu, hakiqiy jonivorlarni har kuni parvarish qilish natijasida xosil qilinadigan bir olam quvonch boshqadir.



2- rasm. Qiziqishlarning rivojlanish bosqichlari

Texnik qobiliyat - texnikani egallashga va texnika fanlarini o`zlashtirishga bo`lgan qobiliyat. Texnikaga, texnika ijodiyotiga bo`lgan qiziqish, mashina va stanoklarda asboblardan ishlashga intilish, fizika, ximiya, matematika, chizmachilik va shu kabi fanlarni muvaffaqiyat bilan o`zlashtirish.

Matematik qobiliyat - fikrlashning matematik metodlarini egallash qobiliyati. Matematikaga bo`lgan qiziqish, mantiqiy fikrlash, analiz qilish va umumlashtirish qobiliyati, matematik bilimlarni muvaffaqiyatli egallash va shu kabilar.

Pedagogik qobiliyat - o`qitish va ta'lim-tarbiya berish maqsadida boshqa bir kishiga ta'sir ko`rsatadi.

Pedagogik faoliyatga qiziqish, bolalarni sevish, bolalar jamoasini uyushtirib bilish mahorati, nutqning ravon va ishonchli o`ladigan bo`lishi, talabchanlik, xushmuomalalik, adolatlilik, xolis niyatli bo`lish va shu kabilar.

Tashkilotchilik qobiliyati qandaydir bir ishni qila olish va odamlarni uyushtirib olish mahorati.

Odamlar bilan tezda til topib ketish, odam psixologiyasini tushunish, odamlar o`rtasida mehnatni to`g`ri taqsimlay olish, o`z vazifasini halol bajarish, tirishqoq bo`lish, o`z xatti harakatlariga tanqidiy qarash va shu kabilar.

Adabiy-lingvistik qobiliyat - adabiy faoliyatga, tillarni o`rganib olishga bo`lgan qobiliyat.

Nutqning yaxshi o`sganligi, lug`at boyligi rivojlanganligi, tillarni egallashga, adabiyotni o`rganishga qiziqishi, eshitib eslab qolish xotirasining kuchlilik, kuzatuvchanlik, assotsiatsiyalarning boy bo`lishi va boshqa shunga o`xshashlar.

San'atga bo`lgan qobiliyat - ijodiy tasavvurga ega bo`lish, obrazli fikrlash qobiliyati. Rassom uchun ko`rib tasavvur qilishning yorqinligi, rang va shaklni his qilish, aktyor uchun – diktsiya (talaffuz), mimika (imo-ishora), boshqalar

qiyofasiga kira olish qobiliyati, nutqning ifodali bo'lishi, tabiatdagi va tevarakatdagi hayotda go'zal narsalarni ko'ra bilish.

Faoliyat ko'rsatish mobaynida kishining mayllari faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga uning mayllari shakllanib ham boradi. Shuning uchun mehnatning har xil turi tasodifan duch kelishini kutib o'tirmay, u ishlarga ongli ravishda kirishib ketaverish kerak. Faqat turli yo'nalishda olib borilgan aktiv faoliyatgina sizga o'z mayllaringizni bilib olish va sinab ko'rish imkonini beradi.

Shunday qilib, kasbni barqaror qiziqish, maylga muvofik tanlash kerak ekan.

Qobiliyatlar. Bular qiziqish va mayllar bilan mahkam bog'liq bo'ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko'rsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xo'sh, qobiliyatning o'zi nima? Odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan har qanday individual psixologik xususiyatni qobiliyat deb hisoblash mumkin. Qobiliyatni faqat bilim va malakalardan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, agar odam hidlarning bir-biridan farqini yaxshi bilsa va ularni esda saqlab qola olsa, u holda bunday fazilat ximik uchun, degustator uchun, oshpaz va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun juda zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Basharti, kishining xotirasida juda ko'p raqamlar, harflar, so'zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo'lsa, u kishi mana shu o'z xotirasidagi ma'lumotlarni kerak paytda ishlata olsa, u holda bu ham juda zarur fazilat, matematika, dasturchiga, konstruktorga va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi.

Har qanday faoliyat muayyan qobiliyatlar jamini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, veterinariya feldsheri yoki shifokor kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo'lishi, chuqur aql idrokka ega bo'lgan chaqkon-epchil odam bo'lmog'i, o'z ishiga g'oyat halol munosabatda bo'lishi kerak.

Hamma uchun zarur bo'lgan umumiy qobiliyatlar (masalan, ijodkorlikka bo'lgan qobiliyat) yoki juda ko'p kasblar va faoliyat turlari uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar (tashkilotchilik qobiliyatlari) ayrim kasblar yoki nisbatan tor doiradagi


kasblar uchun muhim hisoblangan maxsus qobiliyatlar bo`ladi (3-rasm), elektromexanik releni regulirovka qiluvchi kishining qo`llarida sezuvchanlik juda yaxshi rivojlangan bo`lishi kerak, bir xil ohangdagi qo`zg`atuvchilarga nisbatan bardoshlilik - transport vositalarini haydovchi kishi uchun zarur, chizmalarga qarab murakkab buyumlar tayyorlaydigan kishilar uchun esa jismlarning fazodagi holatini tasavvur qila olish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo`lmog`i kerak. Har qanday kasbda ham umumiy va maxsus qobiliyatlar birga qo`shilib kelgan takdirdagina ishning muvaffaqiyati ta'minlanishi mumkin.

Xo`sh, agar kishida tanlangan kasb uchun zarur qobiliyatlarning hammasi bo`lmaschi? Bunday holda ikki yo`l bo`lishi mumkin: yo tanlangan kasbni o`zgartirish yoxud etishmayotgan yoki kam namoyon bo`lgan qobiliyatlar o`rnini qoplash yo`llarini qidirib ko`rish kerak bo`ladi. Masalan, xotirada kamchilik bo`lsa, muntazam ravishda har xil yozuvlar olib borish, kartoteka tuzish va boshqa shunga o`xshash tadbirlar bilan o`sha etishmovchilik o`rnini qoplash mumkin. Jismning fazodagi tasvirini tasavvur etishdagi kamchiliklarni to`ldirish uchun hajmli modellardan foydalaniladi va hokazo.

Qobiliyatning bo`sh rivojlangan o`rnini qoplash - bu odatdagi va zarur hodisa bo`lib, agar kishi o`z ishi sohasida chindan ham yuksak mahoratni egallashi kerak bo`lsa, qo`shimcha mashg`ulotlar uning hayotida katta o`rinni egallashi kerak.

Maktabda olib boriladigan aktiv o`quv faoliyati sizning har biringizga o`z aqliy qobiliyatingizni va eng avvalo tafakkur tiniqligini, mantiqan to`g`ri fikrlashni, tafakkurning mustaqil va original bo`lishini, topqirlikni, chuqur mulohaza qilishni, aqliy teranlik va o`ziga tanqidiy munosabatda bo`lishni rivojlantirish imkonini beradi.

Irodaviy sifatlarni, ya'ni: dadillik, qat'iyat, intizomlilik, o`ziga va o`z kuchiga ishonish, o`zini idora qila bilish, og`irvazmin bo`lish singari fazilatlarni rivojlantirishga ham harakat qilish kerak. Mana shu sifatlarning hammasi birga qo`shilib mehnatga bo`lgan qobiliyatni ta'minlaydi.



4- rasm. Qiziqish, mayl va qobiliyatlarning kasb tanlashga ta'siri.

Qiziqishlar, mayllar va qobiliyatlarning kasb tanlashga ko`rsatadigan ta'sirini 4- rasmdagi sxema tarzida tasavvur qilish mumkin. Shunday kilib, har bir kishi konkret faoliyat sohasida o`z qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlarini shakllantirib hamda rivojlantirib, tanlanadigan kasbga yaxshi tayyorgarlik ko`rib bormog`i kerak.

1. Kasb tanlashda qiziqishlar, mayllar, qobiliyatlar qanday rol o`ynaydi?
2. Qobiliyatlar umumiy va maxsus turlarga bo`linadi, shularning farqini tushuntirib bering va misollar keltiring.

3. Qobiliyat o`rnini qoplash deganda siz nimani tushunasiz?
Sizda ko`proq qanday kasblarga qiziqish va mayllar mavjud ekanligini aniqlashga harakat qilib ko`ring (ilovaga qarang).

O`zingiz tanlagan kasb bo`yicha muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan umumiy va maxsus qobiliyatlarni ajratib ko`rsatishga hamda ularning nomini aytib berishga harakat qilib ko`ring.

Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik

Mehnat faoliyatini boshlash uchun kasb tanlashda bu ishga ongli ravishda yondashmoq va uni mustaqil ravishda hal qilmoq kerak. Muayyan iqtisodiy tumanning xodimlarga boʻlgan ehtiyoji, tanlanadigan kasb talablariga kishining qiziqishi, mayllari, qobiliyati, sogʻligʻi muvofiq kelishi, konkret mehnat sohasida orttirilgan amaliy faoliyat tajribasi, mehnat sharoiti kabi muhim omillar hisobga olinsagina kasbni ongli ravishda tanlangan deb hisoblash mumkin (5-rasm).

Kasb tanlashdagi mustaqillik deganda kishining bu sohadagi maksimal dahlsizligi, oʻzining tashabbuskorligi toʻla namoyon boʻlishi tushuniladi.

Lekin bu, siz ishni yaxshi biladigan, tajribali kishilarning nasihatlariga quloq solmasligingiz kerak, degan ma'noni anglatmaydi, albatta. Bunda eng avvalo oiladagi katta yoshli kishilarning fikrlari nazarda tutiladi. Basharti, kasb tanlash toʻgʻrisidagi masalada sizning va ota-onalaringizning fikri bir joydan chiqsa, bu yaxshi, albatta. Mabodo bunday hamfikrlik boʻlmasa, oʻz imkoniyatlaringizni chamalab, sizdan kattaroq yoshdagi kishilarning fikr mulohazalarini tahlil qilib koʻring. Shundan keyin oʻz tanlagan kasbingiz foydasiga ishonchli dalillar keltirib fikringizni oʻzgartirmaysiz yoki sizga bildirilgan etirozlar oʻrinli boʻlsa, oʻz qaroringizni oʻzgartirasiz - bu masalani hal qilishda, albatta, oʻzingiz mustaqil bir fikrga kelishingiz kerak. Mustaqillikni oʻjarlik bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Mustaqil odam, oʻjar kishidan farqli oʻlaroq, kimningdir unga beradigan maslahatlari oʻzini toʻgʻri yoʻldan adashtirib qoʻyadi, deb qoʻrqmaydi, u oʻsha maslahatlarning foydasini tushunadi, dono fikrlarni oʻziga qabul qiladi, shoshapisha bir xulosaga kelishni oʻylamaydi.

5- rasm. Mehnat sharoitlari klassifikatsiyasi

Kasb tanlashda onglilik va mustaqillik odamning oʻz qiziqishi, qobiliyatlari, irodaviy sifatlariga oʻzi realistik baho berishini taqozo etadi. Bunday oʻz-oʻziga baho berish har kimning ham qoʻlidan kelavermaydi.

Shuning uchun fan o`qituvchilarning, murabbiylarining fikrlariga quloq solish va amal qilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki har bir pedagog sizning xulq-avtoringiz, ish faoliyatingizni kuzatib borib, qiziqishlaringiz, mayllaringiz xarakteringiz, qobiliyatingiz va mehnatga qay darajada tayyor ekaningiz to`g`risida hammadan ko`ra yaxshirok fikr bildirishi mumkin.

Ongli ravishda kasb tanlash degan gapning ma'nosi shuki, sizning har biringiz o`z imkoniyatlaringizni jamiyatimiz ehtiyojlari bilan, uning axloqiy printsiplari bilan taqqoslab ko`rishingiz kerak. Bunda faqat jamiyatning bugungi kundagi ehtiyojlari va imkoniyatlarinigina hisobga olish bilan cheklanibgina qolmay, shu bilan birga mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarini nazardan qochirmaslik muhimdir.

1. Kasb tanlash to`g`risida o`ylayotgan vaqtda qanday asosiy shart-sharoitlarni, vaziyatlarni hisobga olmoq kerak?

2. Nima uchun kishi o`zining butun mehnat faoliyati davomida o`z bilimini takomillashtirib, o`z qobiliyatini rivojlantirib borishi lozim?

3. O`zingiz mo`ljallagan kasbni nima uchun tanlaganingizni asoslab berishga harakat qiling.

Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish

Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullari

Kasbga yaroqlilik - odam bilan uning ishi kasbi o`rtasidagi o`zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo`lgan taqdirdagina: «odam - kasb» formulasini ro`yobga chiqarish imkoni tug`iladi. Mana shunday o`zaro munosabat xususida to`xtalib o`tamiz.

Har qanday kishining o`zigagina xos bo`lgan muayyan shaxsiy fazilatlar, xususiyatlar mavjud bo`ladi. Tanlanayotgan kasbning shaxsga nisbatan qo`yadigan talablariga mana shu shaxsiy sifatlar qay darajada mos kelishiga qarab odamning u yoki bu kasbga yaroqliligi to`g`risida bir qarorga kelish mumkin.

Kasbga yaroqlilikni to'rt xil darajaga bo'lib, ularni bir-biridan farq qilish mumkin.

1. Yaroqsizlik (mazkur kasbga yaroqsizlik). U vaqtincha ham bo'lishi mumkin yoki amaliy jihatdan ro'yobga chiqmaydigan bo'lishi ham mumkin.

Kishining salomatligi yomon bo'lganda, u yoki bu sohadagi ishga o'sha kishining sog'lig'i, shifokorlarning nuqtai nazariga qaraganda to'g'ri kelmaydi, deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to'g'risida gapirish mumkin.

Tanlangan kasbga sog'liqning to'g'ri kelmasligi xususidagi ushbu gurux to'g'risida biz bundan oldingi paragrafda mufassal to'xtalib o'tgan edik.

Lekin tanlangan kasbga faqat sog'liq emas, balki bundan boshqa omillar ham monelik qilishi mumkin. Gap shundaki, butun bir guruxni tashkil etuvchi bir qator kasblar odamga nisbatan juda katta talablar qo'yadi. U kasblarga faqat maxsus qobiliyatga ega bo'lgan kishilargina muvofiq kelishi mumkin. Agar kishida mana shunday maxsus qobiliyat yo'q bo'lsa, uning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Bunday hollarda kishidan o'z kasbiga nisbatan mutlaqo yaroqli bo'lish talab qilinadi, deb aytadilar.

Bajaradigan ishlari jarayonida odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun xavfli bo'lgan, kutilmagan vaziyatlar sodir bo'lishi ehtimol to'tilgan kasblar (uchuvchi, xirurg, energosistemalar operatori va boshqalar) vakillari uchun o'z kasbiga ana shunday mutlaqo yarakli bo'lish sharti qo'llaniladi.

San'at bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida ham xuddi mana shu gaplarni aytish mumkin: masalan, agar kishining tasviriy san'at sohasida ishlash uchun qobiliyati bo'lmasa, rassom, arxitektor, haykaltarosh bo'lib etishishi amrimaholdir.

2. Yaroqlilik (u yoki bu kasb yoxud guruxga yaroqlilik). Kasbga yaroqlilikning ushbu darajasi shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan monelik qiluvchi omillar bo'lmaydi, lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko'zga tashlanib turgan mayllar ham bo'lmaydi. «Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis

bo`lib etisharsiz» - deb tasalli berishadi, bu kasbni tanlagan kishilarga. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta'rifdan bilib olish mumkin.

3. Mos kelish (u yoki bu faoliyat sohasiga odamning mos kelishi).

Bunday hollarda odamning ayrim shaxsiy fazilatlarini ko`rsatib o`tish mumkin. Bu fazilatlar muayyan kasb yoki kasblar guruxi talablariga aniq (shubhasiz) mos keladi. Masalan, biror kishida muayyan bir sohada u yoki bu mehnat ob'ektiga masalan, biologiya, texnika va hokazo ob'ektlarga nisbatan qiziqish bo`lishi yoxud biror sohada o`zini amaliy ishda sinab ko`rish vaqtida ba'zi bir yutuqlarni qo`lga kiritgan kishilardagi muvofiqlik, o`z kasbiga mos kelish buning misolidir. Kasbga yaroqlilikning bu darajasidagi kishilarga nisbatan shunday deb murojaat qilish mumkin: «Siz mana shu kasbni tanlasangiz bo`ladi, siz yaxshi mutaxassis bo`lib etishishingiz juda mumkin».

4. Havas (mazkur kasbga, faoliyat sohasiga). Ishga havasi (rag`bati)

bo`lgan bunday kishini mehnatchi sifatida inson tarakqiyotining mazkur bosqichida kasbga yaroqlilikning oliy darajasi deb hisoblash mumkin. Bu erda gap odamni boshqalardan ajratib turadigan sifatlar to`g`risida bormoqda.

Kishi taxminan o`zi bilan bir xil sharoitda ishlayotgan va o`qiyotgan tengdoshlaridan yaqqol ajralib turadi. Kasbga yaroqlilikning bunday darajasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «Siz faoliyatning shu sohasi-da, ha, ayni mana shu sohada yaxshi mutaxassis bo`lib etishasiz».

Kasbga yaroqlilik tug`ma sifat emas. U mehnat faoliyatida shakllanib boradi. Mehnat jarayonida faqat kasbiy idrok, xotira va tafakkur rivojlanibgina qolmay, odamda muayyan xulk-atvor tipi ham, uning jamoada ishlashga xos yo`nalishi ham, talabchanligi ham, burchni anglash hissi ham, shaxsning boshqa shu singari fazilatlari ham rivojlanib boradi.

Ko`pchilik kasblarda ularga yaroqlilik masalasida odamga mutlaq talablar qo`yilmaydi; unda etishmaydigan zarur fazilatlar, xususiyatlar, qobiliyatlar o`rnini boshqalarini rivojlantirish hisobiga qoplash mumkin.

Odamda mavjud boʻlgan barcha fazilatlarni kasbiy jihatdan qimmatli, zararli yoki neytral (xolis) sifatlar deb bir necha turga ajratish mumkinmi?

Yoʻq. Gap shundaki, hatto eng oddiy biror kasb toʻgʻrisida gap ketganda ham kasbiy jihatdan yagona va shubhasiz qimmatli fazilatlar toʻgʻrisida gapirib boʻlmaydi. Misol uchun, koʻp stanokchi toʻquvchilar kasbini olib koʻraylik.

Ularning bir xillari tez harakat qilish hisobiga yuksak natijalarga erishadilar, boshqalari esa ehtiyotkorlik, puxta ishlash, ishning koʻzini bilish hisobiga yutuqqa erishadilar, uchinchi bir xillari, esa, ishni bir maromda, bir xil surʼatda tashkil etish hisobiga muvaffaqiyatga erishadilar. Xodim qanchalik malakali boʻlsa, u oʻzining kuchli tomonlaridan shunchalik koʻproq, maksimal darajada foydalanadi hamda oʻzining zaif tomonlarini engib, har xil vositalar bilan ularning oʻrnini qoplaydi. Natijada ishda takrorlanmas individual uslub vujudga keladi. Shuning uchun ham: «Ish ustasidan qoʻrqar»- degan dono maqol toʻqilgan.

Odamning oʻz kasbiga yaroqli ekanini quyidagi asosiy fazilatlariga qarab belgilanadi: fuqoraliklik fazilatlari (masalan, diniy eʼtiqod, vatanparvarlik, jamoatchilik, umumfoydasi uchun mehnat qilish ehtiyoji va boshqalar); mehnatsevarlik, mehnatga halol munosabatda boʻlish, mazkur sohadagi faoliyatga nisbatan ijobiy qiziqish va mayllarning mavjudligi, aql-idrokning keng va teranligi, puxtalik, intizomlilik, oʻz-oʻzini nazorat qilishning rivojlanganligi, tashabbuskorlik, salomatligining yaxshiligi va boshqa shunga oʻxshash sifatlar maxsus qobiliyatlar (masalan, pianino va royallarni sozlovchi kishi uchun musiqani tinglay olish qobiliyatining yaxshi rivojlangan boʻlishi, Kamolot YoIH etakchisi uchun koʻpchilik bilan muloqotga kirishib, tezda til topishib keta olish qobiliyati zarur va hokazo).

Oʻz kasbingizga yaroqlilik uchun zarur boʻladigan ayrim fazilatlarni oʻzingiz muntazam ravishda shakllantirib borishingiz mumkin va lozim (eʼtiqod, halollik, burch hissi, jamoa boʻlib ishlash ana shunday muntazam ravishda shakllantirib borishni talab qiladigan fazilatlar hisoblanadi).

Biz hozir «odam kasb» formulasidagi o`zaro aloqadorlikning bir tomonini qarab chiqdik. Endi odam uchun kasbning o`zi yaroqsiz bo`lib qolishi mumkin bo`lgan holat to`g`risida gaplashamiz. Buni quyidagi misolni qarab chiqish orqali tushuntirish mumkin.

Konstruktorlar qudratli yuk ko`tarish mashinasi yaratdilar, lekin buni qarangki, bu mashinani boshqarish juda og`ir ekan (tushirish, tormozlash, to`xtatish richagini bosish, uni bir joydan ikkinchi joyga surish uchun haddan tashqari katta jismoniy kuch talab qilinar ekan). Bunday holda kishining, masalan, ayol kishining bu mashinada mashinist bo`lib ishlash kasbiga loyiq emasligi to`g`risida gapirib o`tirmasa ham bo`ladi, mashinani boshqarish usulini o`zgartirish kerak bo`ladi.

XULOSA

Shunday qilib, maktabdagi butun ta'lim va tarbiya tizimi o`quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashni ta'minlaydi. O`quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash umumiy politexnik va mehnat ta'limi jarayonida, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ish jarayonida olib boriladi.

Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqboli - kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olishda ko'rinadi.

Mutaxassislarning bashorat qilishlariga qaraganda, har bir inson o`z hayoti davomida 5-6 marta kasbiy bilim va malakalarni yangilashiga to'g'ri kelar ekan. Buning uchun esa mustahkam poydevor umumiy o`rta ma'lumot bo`lishi kerak. Ayni mana shunda bilimlar tizimi har qanday kasbiy faoliyatning negizini tashkil etadi, umumiy qobiliyatlarni hamda kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo`lgan fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi, o`nlab turli mashg`ulotlarning tushunarli bo`lishini, mahoratni tez sur'atlar bilan o`stirishni ta'minlaydi, agar zarur bo`lsa faoliyat sohasini o`zgartirish imkonini beradi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, odamning kasbga yaroqliligi o`zgaruvchan xarakteristikadir. Kasbga yaroqlilikni shakllantirish bu faqat odamdagi muayyan fazilatlarni (masalan, o`z-o`zini tarbiyalash vositalari bilan) rivojlantirishdangina iborat bo`lib qolmay, shu bilan birga mehnat sharoitini, ishlab chiqarish vositalarini o`zgartirishni ham taqozo etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» - T. "Sharq" NMK. 1998.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, Tasviriy san'at, CHizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya. (1-9sinflar) "Toshkent- 2010"
3. Muslimov N.A, SHaripov SH.S. v.b. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: 2009 427 b.
4. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «o'qituvchi», 1992. 319 b.
5. Qo'ysinov O.A., Sattorov.V.N., YAkubova H.S. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashdan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.
6. Sharipov Sh.S, YAkubova H.S. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. Kasb tanlashga yo'llash fanidan labaratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. Toshkent-2008.
7. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006. 52 b.
8. Sharipov Sh.S, YAkubova H.S Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar kasbiy moslashishining tashkiliy-metodik omillari. Metodik qo'llanma. Toshkent-2007.
9. www.ziyonet.uz
10. www.pedagog.uz
- 11.